Hozirgi sharq miniatyurasi uslubi meros qilib olinibgina qolmay, balki yangicha zamonga moslab stillashtirish vujudga keldi va rivojlandi ham. Badiiy vositalar shakllari, vaqt tarkibi o'zgardi, biroq epiklik, liriklik qatlamlari ushbu san'at janrining o'ziga xos jihatlarini belgilovchi sifatida doim mavjud bo'lgan. Ko'p asarlarida hodisalar rivoji yo'q, ozgina detallar bo'lib, o'tgan hodisaga ishora qilgandek bo'ladi. Bularning barini rassomlar ranglar ko'lankasi salmog'i, kompozitsion vazminlik orqali ifodalashadi. Obrazlar musiqiy yakunlanganligi, zamonning voqeaga boyligi, mahobatli maromi tufayli ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Miniatyuralarda kompozitsiya yechimiga erishishda inson va hayvonni nafis tasvirlashdan tortib, butun tasvirni nozik o'rabi olgan naqshgacha bezak bilan boyitilgan. Hatto kompozitsion bo'shliqlar ham sipo va puxta bezatilgan.

Lirik va poetik holatning bir-biri bilan bog'liqligi kompozitsiyada harakat kuch hamda ritm xususiyatini belgilab boradi. Miniatyura asarlarida bezaklar nafis obrazlarga aylanadi. Tuzilishiga ko'ra naqshinkor bo'lgan bu obrazlar aniq voqealardan keltirib chiqariladi. Vaqt go'yo o'zining turli o'chmlarida iskanjaga olgandek tuyuladi, ta'sir, keskinlik, ya'ni voqeiy o'tmish bilan hozirgi zamon shaxsiy kechinmalarining yaqinlashuvi shundan yuzaga keladi. Lirik va poetik zamon qatlamlari aniq ifodasini topgan. Hozirgi o'zbek miniatyurachi rassomlari ijodida ko'zga tashlanadigan ritmlarning qathiy jo'shqinligi, obrazlarning emotsiyal hamda realistik keskinligi o'rta asrlarda Markaziy Osiyo miniatyurasida bo'lman, deb ishonch bilan aytish mumkin. Miniatyuralarda makon yorug'lik va havo bilan to'liqdek tuyuladigan, ritm qonuniyati amal qilib turgan teranlik kasb etadi. Ko'plab miniatyuralardagi ravon, silliq chiziq alohida shakl erkinligini yuzaga

keltiradi, rangli dog'lar ko'lankasini kengaytiradi, ularni makonda ifodalil qiladi. Ba'zan rassom makonni ataylab qisqartiradi, uni yuqoriga siljitadi, natijada kompozitsiya ritmi yanada keskinlashadi, obrazlarga alohida jiddiylik hamda ifodalilik baxsh etiladi.

Turli asarlarda obrazning individuallik darajasi juda xilma-xil. Biroq u, eng avvalo, sharq miniatyurasining o'ziga xosligi, uning buyuk hamda badiiy zamonning ko'p qatlamliligi bilan aloqasi orqali cheklanganligiga e'tiborni qaratish muhim.

Har bir asarga romantiklik baxsh etish, ulug'vorlik, qahramonlik miniatyuraning badiiy qurilishini, uning shaklini va zamon bilan bog'liq turli jihatlarini saqlab qolish imkonini berdi.

Ko'p asarlarda majoziylik ramziy ohang kasb etgan, ayni mahalda u aniq bir maqsadga obraz orqali qo'shilib ketadi.

O'tmishning, hozirning, tasavvurdagining tasviri bitta miniatyurada, bitta tasvir sirtida birlashishi mumkin. Hozirda rassomlarimiz O'rta Osiyo, o'rta asrlar sharq miniatyurasining ijodiy merosini hamda an'analarini diqqat bilan o'rganishmoqda, miniatyura rangtasvirining boy vositalarini, uni chizishning nozik usullari tizimini, asta-sekin o'zlashtirishmoqda. Aniq va tarixiy material, maishiy turmush, madaniyat bo'yicha chuqur bilimga egaliklari tufayli uni yanada rivojlantirish yo'llarini izlashmoqda.

Miniatyura badiiy obrazining keng qamrovliligi, ramziylashish va romantiklashishi munosabati shundandir. O'tmish xotirasini keljak to'g'risida orzu bilan birlashtiruvchi xalqona asosning, nihoyat, rassomlar ijodining emotsional ta'siri va ularning uslub maktabi an'analar xususiyatlarining kuchi ham shundan.

Hozirgi o'zbek miniatyura maktabi san'at turi sifatida qaror topdi, uning zamonga o'z munosabati bor. Bu maktabni tarixiy tajriba ham, hozirgi amaliyot va ushbu san'at tabiatini tarkib toptiruvchi hamda uning dunyoga nisbatan qarashini ma'lum darajada shakllantiruvchi qoidalar ham belgilab beradi. Zamonni tashkil qilish miniatyura ustalarining g'oyaviy-badiiy his qilishlariga, ularning o'z xalqini genetik his etishiga, kollektiv tajribaga shahsiy idrokni va o'z xalqiga, millatiga, diniga va madaniyatiga munosabatni olib kiruvchi obrazlar kechinmalariga bog'liq.

Miniatyurada tarkibiy qatlamlarining o'zaro ta'siri ko'zga tashlanadi. Zamon hayotiy va hayoliy narsalar birga mavjud bo'ladigan ertakona fantaziya, folg'kloring ideal olamidagina qo'shilib ketishi mumkin. Ayni shu holat zamondagi davomlilikni yuzaga keltiradi, obrazlar epikligini belgilab beradi, ichki mazmun asosida ro'y beradigan keng miqyosdagi birlashish, qiyoslashlarga imkon yaratadi.

XULOSA

Shunday qilib, san'atning uslubiy pishiqligi, uning estetik quvvati zamonga to'g'ridan-to'g'ri taaluqli bo'lib, u bilan chambarchas bog'liq.

O'rta asrlar sharqi miniatyura asarlari qahramonlari olis o'tmish muammolarini: kishilar o'rtasidagi munosabatlarini, ularning muhabbati, kurashi, ehtiroslari orzu umidlarini yorqin ifodalagan. Rassomning urf-odatlari va din bilan belgilangan faoliyati ijtimoiy munosabatlarning yagona yopiq tizimiga kiritilgan. San'atning rivojlanishi esa umumiyl uslub me'yorlari hamda qoidalari bilan belgilangandi.

Ko'plab voqealarga boy hozirgi davrda zamon yugurikligi oshganday tuyuladi. Hozirgi rassomlarning ko'pchiligi o'z miniatyura asarlarida haqqoniy vogelikdan an'analarning birmuncha barqaror olamiga, go'zallik va shehriyat hukm surayotgan, his-tuyg'u mustahkam va barqaror, muhabbat abadiy bo'lgan, haqiqat tantana qiladigan, shavkat, jasorat va mardlik e'tibor topadigan olamga sho'ng'iydilar. Tasvirlanayotgan voqealar ishonarli ifodalanishiga qaramay, ular hozirgi miniatyura ustalari tomonidan romantik orzular va go'zal hayollar og'ushida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston san'ati. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent-2001 y.
2. N.Abdullaev. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent-2007 y.
3. Sh.Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. T.-2006 y.
4. A.Axmedov. O'zbekiston tarixi manbaalari.-Toshkent.-2001 y.
5. "San'at". O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali. 3-son. 2010 y.
6. A.Egamberdiev, S.Saidov, R.Rajabov. Tasviriy va me'morlik san'ati tarixi. Toshkent. "O'qituvchi". 2007 y.
7. "San'at" O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali. 3-son. 2000 y.
8. V.Oripov, V.Jabborov, O'zbekiston san'ati va me'morchiligi. Toshkent-1994 y.
 9. V.Oripov, T.Axmadaliev, Namangan me'morchilik san'ati. Namangan-1999 y.

О'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati

Xasanov Axmad Shodiyorovich

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo 'rg'on filiali o'qituvchi

Qodirov Shohzodjon Asqar o'g'li

Xudoyberdiyev Begzod Tulqin o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo 'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni ahamiyati mamlakat iqtisodiyotini yaxshilash, yangi ish o'rnlari yaratish imkonini beradi. Ushbu maqolada himoyalangan resurslarning taxminiy ro'yxati, shuningdek, mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish usullari ko'rsatilgan. Shuningdek, investitsiyalarni kengroq jalb qilish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari kengayib, aholi daromadliligi oshadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, ishlab chiqarish, soliq imtiyozlari, yangi ish o'rnlari, yashil iqtisodiyot, infratuzilma, iqtisodiy o'sish, rivojlanish, innovatsion ekotizim

Investitsiya — lotincha tildan olingan bo'lib, investio — „o'rash“ degan ma'noni bildirib, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihamariga uzoq, muddatli kapital kiritish yoki qo'yish. Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtida o'stirib borishdir.

Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlash uchun investitsiyalar katta rol o'ynaydi. Xususan, ichki va tashqi investitsiyalar ishlab chiqarish hajmlarini oshirishi, yangi ish o'rnlarini yaratishi va zamonaviy infratuzilma barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot sohalariga qaratilgan investitsiyalarni rag'batlantirish, O'zbekistonni global raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Tashqi investitsiyalar va xorijiy hamkorlikning ahamiyati O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlardan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, texnologiya transferi va ilg'or boshqaruv tajribasini import qilish imkonini beradi. Tashqi

investitsiyalarni o'rganish va yanada takomillashtirish orqali O'zbekistonning xalqaro savdoda o'rni yanada mustahkamlanadi.

Ichki investitsiyalarni rag'batlantirish: davlat siyosati va moliyaviy instrumentlar ichki investitsiyalarni jalb qilish uchun, O'zbekiston hukumati innovatsion investitsiya muhiti yaratishga e'tibor qaratishi lozim. O'zbekistonning moliya sektori va bank tizimi uchun yangi instrumentlar va mexanizmlar ishlab chiqilishi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik (PPP) dasturlarini rivojlantirish, o'ziga xos soliqqa oid imtiyozlar yaratish orqali ichki investitsiyalarni rag'batlantirish mumkin.

Investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishga erishish, investitsiyalar iqtisodiyotning nafaqat qisqa muddatli o'sishini ta'minlaydi, balki uzoq muddatda barqaror rivojlanishga olib keladi. Xususan, ekologik jihatdan barqaror energiya manbalariga va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlariga investitsiyalarni jalb qilish, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro investitsiya jamg'armalaridan qo'shimcha kapital jalb qilishga yordam beradi.

Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi va investitsiya salohiyatini oshirish O'zbekistonning tadbirkorlik muhitini yaxshilash, qonunlarni yangilash va shaffoflikni ta'minlash orqali mamlakatda investitsiya faoliyatini oshirish mumkin. Investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, yangi startaplarni yaratish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish, iqtisodiyotning turli sohalarida yangiliklarni joriy etish imkonini beradi. Xususan, texnologiyalarni ishlab chiqish va ilm-fan sohasidagi investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshiradi.

Investitsiyalar, ayniqsa infratuzilma va ijtimoiy sektorlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar orqali, O'zbekistonning hududlararo tenglikni saqlash, ta'lif va sog'liqni saqlash tizimlarining sifatini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning ijtimoiy infratuzilmasiga sarmoyalar jalb qilish, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash va mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda uzoq muddatli rejalshtirishga e'tibor qaratish, iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirish va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda yordam beradi. O'zbekistonning kelajakdagi investitsiya strategiyalari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ekologik toza sanoatni rivojlantirish va zamonaviy qishloq xo'jaligini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalar juda muhim rol o'ynaydi. Investitsiyalar iqtisodiyotning turli sohalarini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinalarini yaratish, texnologiyalarni takomillashtirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, "UzAuto Motors" kompaniyasini olaylik. Bu kompaniya O'zbekistonda yengil avtomobillar ishlab

chiqarish sohasida yetakchi o'rin tutadi va investitsiyalarni jalg qilishda katta ahamiyatga ega.

UzAuto Motors va Investitsiyalar:

UzAuto Motors 2019 yilda Yevropa Investitsiya Banki (EIB) va boshqa xorijiy investorlar orqali katta miqdorda investitsiyalar jalg qildi. Ushbu investitsiyalar kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kuchaytirish uchun sarflandi. Yangi ishlab chiqarish liniyalari va avtomobil modellarini ishlab chiqarish o'z navbatida kompaniyaning eksport salohiyatini oshirishga yordam berdi.

Investitsiyalarni amaliyatga tadbiq qilish:

UzAuto Motors kompaniyasiga jalg qilingan investitsiyalar:

1. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish: Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikda yangi avtomobil ishlab chiqarish zavodlari tashkil etildi. Bu esa O'zbekistonning ichki avtomobil bozorini ta'minlash bilan birga, eksportni ham kuchaytirish imkonini berdi.

2. Texnologiyalarning yangilanishi: Investitsiyalar yordamida kompaniya yuqori texnologiyalarni joriy etdi, jumladan, avtomobil ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish tizimlarini o'rnatdi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi.

3. Ish o'rinalarini yaratish: Yangi zavodlar va ishlab chiqarish liniyalari qurilishi bilan birga, yuzlab yangi ish o'rinalari yaratildi. Bu esa hududiy ish o'rinalari va iqtisodiy faoliytni oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Natijalar:

O'zbekistonning avtomobil sanoati sezilarli darajada rivojlandi, uning eksporti ortdi.

Mahalliy ishlab chiqarish kuchaydi, bu esa O'zbekiston iqtisodiyotiga katta foyda keltirdi.

Yangi texnologiyalarni tatbiq etish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali kompaniya nafaqat ichki bozorga, balki xalqaro bozorlarga ham muvaffaqiyatli chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shunday qilib, UzAuto Motors kompaniyasini misol qilib keltirgan holda, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati nafaqat korxonalarning o'sishiga, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rshimiz mumkin.

Xulosa:

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati katta. Investitsiyalarni rag'batlantirish va samarali boshqarish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va jamiyatning farovonligini

oshirish mumkin. Investitsion salohiyatni oshirish uchun davlatning samarali siyosati, biznesni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 09.12.2014-yildagi "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-380-qarori
3. A.U.Burxanov, Sh.X.Muminov, X.X.Xudoyqulov "Innovatsion rivojlanish" , Nashriyot matbaa uyi, 2021

NOGIRONLIGI BÖLGAN SHAXSLARNING TALIM OLİSH HUQUQLARI

G'aniyeva Dinara Muzaffarovna

Samarqand davlat unversitetining

Kattaqo'rg'on filiali ijtimoiy ish ta'lism yo'nalishi

Ishmurodov Bunyod Farxodovich

Samarqand davlat unversitetining

Kattaqo'rg'on filiali san o'qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lism olish huquqlari, bu huquqlarning xalqaro va milliy darajada himoyalanishi, shuningdek, ularni amalga oshirishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni yengib o'tish yo'llariga bag'ishlangan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lism olish huquqlarini ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatdagi inklyuzivlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nogironlik, ta'lism huquqi, inklyuziv ta'lism, xalqaro konvensiyalar, ijtimoiy integratsiya, imkoniyati cheklangan shaxslar.

Kirish

Ta'lism har bir insonning asosiy huquqlaridan biridir va uning barcha qatlamlar uchun teng ta'minlanishi muhimdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lism olish huquqlari xalqaro hujjatlarda, xususan, BMTning 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Nogironlik holati insonning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishiga xalaqit qilmasligi kerak. Xalqaro miqyosda BMTning yuqorida qayd etilgan Konvensiyasi va BMTning "Ta'linda barcha uchun teng imkoniyatlar" tamoyillari ushbu huquqni kafolatlaydi. O'zbekistonda esa nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari Konstitutsiya, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun va "Ta'lism to'g'risida"gi qonunlarda kafolatlangan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'lism olishda qator muammolarga duch keladi:

Jismoniy infratuzilma yetishmasligi. Ko'plab maktablar va oliy o'quv yurtlari maxsus liftlar, panduslar, ko'r va eshitish bo'yicha muammolarga ega shaxslar uchun moslashgan auditoriyalar bilan jihozlanmagan.

Malakali o'qituvchilar tanqisligi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus pedagoglar va yordamchi xizmatlarning yetarli emasligi.

Jamiyatdagi tushunmovchiliklar. Ba'zi hollarda jamiyatning nogironlikka nisbatan noto'g'ri yondashuvi ularning ta'lism olish huquqlarini cheklaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tizimini kengaytirish.

Maxsus o'qituvchilar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash.

Jamoatchilik ongini o'zgartirish uchun targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi nafaqat inson huquqlari masalasi, balki ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashning muhim jihatidir. Ushbu huquqning to'laqonli ta'minlanishi orqali biz inklyuziv jamiyatni shakllantirishimiz mumkin. Biroq, mavjud muammolarni hal qilish uchun keng qamrovli chora-tadbirlar zarur.

Huquqiy bazani mustahkamlash: Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish zarur.

Nogironlikni kamsitishni oldini olishga qaratilgan maxsus qonunlarni kuchaytirish va ularning ijrosini nazorat qilish.

Infratuzilmani rivojlantirish: Ta'lim muassasalarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirish, jumladan, panduslar, liftlar va maxsus auditoriyalarni qurish.

Maxsus texnik vositalar (brail alifbosidagi kitoblar, eshitish moslamalari) bilan ta'minlash.

Malakali kadrlar tayyorlash: Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashga ixtisoslashgan o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish.

Ta'lim sohasida nogironlik bo'yicha ekspertlarni jalg qilish.

Jamiyatni ma'lumotlantirish va targ'ibot ishlari: Jamiyatning nogironlikka nisbatan tushunchalarini o'zgartirish uchun keng qamrovli axborot-targ'ibot kampaniyalarini o'tkazish.

Oilalar va o'qituvchilarni nogironlik masalalarida ma'lumotli qilish, ularga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish.

Inklyuziv ta'limni kengaytirish: Nogironligi bo'lgan bolalar uchun umumiyl muktab tizimiga integratsiya qilish orqali inklyuziv ta'limni kengaytirish.

Maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ular uchun mos resurslarni ajratish.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim olishda davlat tomonidan grant va stipendiyalarni ko'paytirish.

NNT va xususiy sektor tomonidan moliyaviy ko'makni rag'batlantirish.

Monitoring va tahlil tizimini yaratish: Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish.

Inklyuziv ta'lim dasturlari natijadorligini baholash uchun maxsus ko'rsatkichlar ishlab chiqish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Nogironlik sohasida ilg'or tajribalarni O'zbekistonga jalg qilish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan grant loyihalari va dasturlarni amalga oshirish. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi nafaqat inson huquqlari masalasi, balki ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashning muhim jihatidir. Ushbu huquqning to'laqonli ta'minlanishi orqali biz inklyuziv jamiyatni shakllantirishimiz mumkin. Biroq, mavjud muammolarni hal qilish uchun keng qamrovli chora-tadbirlar zarur. Quyida tavsiyalar keltirilgan:

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlari zamonaviy demokratik jamiyatlarning muhim masalalaridan biridir. AQShda ushbu sohada keng qamrovli huquqiy bazaga va rivojlangan amaliyotlarga asoslangan tizim mavjud. Mazkur maqolada AQSh tajribasini o'rganish va uning O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan jihatlarini ko'rsatib o'tamiz.

AQShdagi huquqiy asoslar: AQSh nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini quyidagi qonunlar orqali himoya qiladi:

1. Nogironlar ta'limi to'g'risidagi Qonun (IDEA, 1975)

Ushbu qonun barcha nogironligi bo'lgan bolalar uchun bepul va sifatli ta'limni kafolatlaydi.

IDEA asosida maxsus xizmatlar ko'rsatish va Individual Ta'lim Dasturlarini (IEP) ishlab chiqish majburiy hisoblanadi.

IEP har bir bolaga moslashtirilgan o'quv rejasini, pedagogik yondashuvlarni va qo'shimcha yordam xizmatlarini o'z ichiga oladi.

2. Amerikaliklar nogironligi to'g'risidagi Qonun (ADA, 1990)

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim jarayonida diskriminatsiyasini qat'ian man etadi. Ushbu qonun asosida ta'lim muassasalarining jismoniy infratuzilmasini moslashtirish (liftlar, panduslar, maxsus sinflar) talab qilinadi.

3. Reabilitatsiya to'g'risidagi Qonun (1973)

Federal moliyalashtirilgan har qanday dastur nogironligi bo'lgan talabalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashi lozim.

AQSh ta'lim tizimidagi mexanizmlar va amaliyotlar

AQShda nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlashda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Inklyuziv ta'lim

Nogironligi bo'lgan talabalar umumiy maktab tizimiga integratsiya qilingan.

Ular oddiy sinflarda o'qtiladi, zarurat bo'lganda yordamchi xizmatlar taqdim etiladi.

2. Individual Ta'lim Dasturlari (IEP)

Har bir talabaning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim dasturi ishlab chiqiladi.

IEP dasturi pedagoglar, psixologlar va ota-onalar hamkorligida tuziladi.

3. Maxsus yordamchi xizmatlar

Maxsus texnologiyalar (brail alifbosi, ovozli kitoblar, moslashtirilgan kompyuter dasturlari) keng qo'llaniladi.

Jismoniy yordam xizmatlari (nogironlar uchun transport, o'quv vositalari).

4. Texnologiyalarning roli

Elektron platformalar va moslashtirilgan raqamli resurslar masofaviy ta'lilda faol qo'llaniladi.

Nogironlikning turiga mos moslamalar (masalan, nutqni aniqlashtiruvchi qurilmalar, ovozli muloqot tizimlari) taqdim etiladi.

5. Maxsus muassasalar va dasturlar

AQShda jiddiy nogironligi bo'lgan talabalar uchun ixtisoslashgan maktablar faoliyat yuritadi.

Kasbiy reabilitatsiya markazlari nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat bozoriga tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Natijalar va erishilgan yutuqlar

1. Diskriminatsiyaning bartaraf etilishi

Nogironligi bo'lgan shaxslar oddiy talabalar bilan bir xil huquqlardan foydalanmoqda.

Davlat va xususiy sektorlar hamkorligi natijasida barcha darajadagi ta'lim imkoniyatlari kengaygan.

2. Yuqori integratsiya darajasi

Inklyuziv ta'lim orqali nogironligi bo'lgan talabalar jamiyat hayotiga faol qo'shilmoqda.

3. Ta'lim sifati oshgan

IEP va texnologik qo'llab-quvvatlash natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning akademik yutuqlari sezilarli darajada oshdi.

O'zbekiston uchun takliflar

1. Huquqiy bazani takomillashtirish

AQShning IDEA va ADA qonunlariga o'xshash qonunchilikni rivojlantirish va amaliyotga joriy etish.

2. Infratuzilmani rivojlantirish

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ta'lim muassasalarining jismoniy moslashuvchanligini oshirish (liftlar, panduslar, maxsus auditoriyalar).

3. Individual Ta'lim Dasturlarini joriy qilish

Har bir talabaga moslashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun maxsus guruhlarni tashkil etish.

4. Malakali kadrlar tayyorlash

Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha maxsus o'qituvchilar va psixologlarni tayyorlash.

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish

AQSh va boshqa davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish.

Xulosa va tavsiyalar

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqini ta’minalash nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta’lim jamiyatni yanada inklyuziv, adolatli va teng huquqli qilishga xizmat qiladi. Shu bois, bu borada davlat, nodavlat tashkilotlar va jamiyat birgalikda ishlashi zarur. AQSh tajribasi ham O‘zbekiston uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishda qimmatli model sifatida xizmat qilishi mumkin. Xususan:

Ta’lim tizimida individual yondashuvni kuchaytirish;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim infratuzilmasini moslashtirish;

Huquqiy bazani mustahkamlash orqali diskriminatsiyani oldini olish;

Texnologiyalardan keng foydalanish orqali ta’lim sifati va imkoniyatlarini oshirish O‘zbekistonda samarali natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.BMT “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, 2006-yil.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 4.Xalqaro Mehnat Tashkiloti materiallari, 2018-yil.
- 5.Inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro tajriba: UNESCO ma’ruzalari, 2022-yil.
6. Individuals with Disabilities Education Act (IDEA). (1975). U.S. Department of Education.
7. Americans with Disabilities Act (ADA). (1990). ADA.gov.
8. Rehabilitation Act of 1973. U.S. Department of Justice.

LOG-ALGEBRALARINING BERILISHI

*Iskandarov Behzod Qurol o‘g‘li**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi**Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti Urganch filiali**“Tabiy fanlar” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi**Elektron pochta: behzodiskandarov07@gmail.com*

Annotatsiya: Matematika rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan sifatida mukammalikni, hamda zamonaviy olimlarning ilmiy adabiyotlarini jiddiy tahlil etishni talab etadi.

Ushbu muammo bilan F.Sukochev, K. Dykema, D. Zanin, Ayupov Sh.A, Chilin V.I, Abdullayev R.Z, Xudayberganov K.K kabi olimlar shug’ullanmoqda. Xususan, log-algebrasining izometriyasi mavzusi ustida hozirgi kunda bizning mamlakatimizning matematik olimlari hamda ko’pchilik ilmiy tadqiqotchilar shug’ullanmoqda.

Bu mavzuda hali ko’pchilik muammolar o’z yechimini topmagan. Shu sababli, maqola mavzusini log algebrasining berilishi deb nomladik.

Kalit so’zlar: O’lchovli fazo, vector fazo, F-norma, subadditivlik, topologiya, log-algebra.

O’lchovli fazoda (Ω, μ) $L_0 = L_0(\Omega, \mu)$ o’lchovli integrallanuvchi funksiya berilgan bo’lsin. Ω deyarli hamma funksiyada bir xil qiymatda aniqlanadi.

$$L_{\log}(\Omega, \mu) = \{f \in L_0 \mid \int \log(1+|f|) d\mu < +\infty\}.$$

Agar bunda μ cheklangan bo’lsa, $p \in (0, \infty)$ qiymatda $L_p(\Omega, \mu) \subseteq L_{\log}(\Omega, \mu)$ o’rinli bo’ladi. $L_{\log}(\Omega, \mu)$ vektor fazo bo’lsa, uni tengligini tekshirish oson. Har qanday $f \in L_{\log}(\Omega, \mu)$ uchun normasi quyidagiga teng: $\|f\|_{\log} = \int \log(1+|f|) d\mu$

Quyidagi lemma $\|\cdot\|_{\log}$ norma F-norma ekanligini ko’rsatadi.

1-lemma. Barcha $(a) \|f\|_{\log} > 0$ lar uchun $f \neq 0$ qiymatda o’rinli.

(b) $\|\alpha f\|_{\log} \leq \|f\|_{\log}$ bo’lsa, barcha f lar va $|\alpha| \leq 1$ bo’lganda o’rinli.

(c) $\lim_{\alpha \rightarrow 0} \|\alpha f\|_{\log} = 0$ barcha f lar uchun.

(d) $\|f + g\|_{\log} \leq \|f\|_{\log} + \|g\|_{\log}.$

Isboti. (a)-(c) lar aniq. (d) ni shular orqali isbotlaymiz.

$$\begin{aligned}\|f+g\|_{\log} &= \int \log(1+|f+g|)d\mu \leq \int \log(1+|f|+|g|+|fg|)d\mu = \\ &\int (\log(1+|f|)+\log(1+|g|))d\mu = \|f\|_{\log} + \|g\|_{\log}.\end{aligned}$$

Bundan ko'rinadiki, $\|f\|_{\log}$ F-norma bo'ladi.

Yuqoridagi lemmadan $d_{\log}(f, g) := \|f - g\|_{\log}$ bo'lishi kelib chiqadi.

$L_{\log}(\Omega, \mu)$ o'zgaruvchi metrik bo'lib, $L_{\log}(\Omega, \mu)$ topologik vector fazo ko'rinishiga keltiriladi.

$L^{\varphi}(\Omega, \mu)$ buni topologiyaga ega deb bilamiz va F-norma quyidagiga teng:

$$\|f\|_{\varphi} := \inf\{\lambda > 0 \mid \left\| \frac{|f|}{\lambda} \right\|_{\log} \leq 1\}$$

2-lemma. $f \in L_{\log}$ bo'lsin.

1) Agar $\|f\|_{\varphi} < 1$, bo'lsa, $\|f\|_{\log} \leq \|f\|_{\varphi}$ bo'ladi.

2) Agar N butun son bo'lsa, quyidagi o'rinni

$$\|f\|_{\log} \leq \frac{1}{N^2} \Rightarrow \|f\|_{\varphi} < \frac{1}{N}.$$

Isboti. Agar $\|f\|_{\log} \leq \|f\|_{\varphi}$ bo'lsa, unda har qanday $\lambda < 1$ uchun $\left\| \frac{|f|}{\lambda} \right\|_{\log} \leq 1$ o'rinni.

Demak,

$$\|f\|_{\log} = \int \log(1+|f|)d\mu \leq \int \log(1+\frac{|f|}{\lambda})d\mu \leq \lambda.$$

λ dan kichikligi birinchini tasdiqlaydi.

Agar N butun son bo'lsa va $\|f\|_{\log} \leq \frac{1}{N^2}$ tenglik qo'shish qoidasidan va 3.1.1-lemmadan

$$\int \log(1+N|f|)d\mu = \|Nf\|_{\log} \leq N\|f\|_{\log} < \frac{1}{N}$$

kelib chiqib, $\|f\|_{\varphi} < \frac{1}{N}$ tengsizlik o'rinni bo'ladi.

3-lemma. Bizga $f, g, h \in L_{\log}(\Omega, \mu)$ va K haqiqiy musbat son berilgan bo'lsin. U holda $f \cdot g \in L_{\log}(\Omega, \mu)$ bo'lib, quyidagilar o'rinni:

$$1) \|Kf\|_{\log} \leq \max(K, 1)\|f\|_{\log},$$

$$2) \|fg\|_{\log} \leq \|f\|_{\log} + \|g\|_{\log},$$

$$3) \text{ agar } |g| \leq |h| \text{ bo'lsa, hamma vaqt } \|f \cdot g\|_{\log} \leq \|f \cdot h\|_{\log} \text{ o'rinni.}$$

I sboti. a va b manfiy emas haqiqiy sonlarni olaylik, u holda biz

$$\log(1+ab) \leq \max(b, 1) \log(1+a)$$

$$\log(1+ab) \leq \max(1+a) + \log(1+b)$$

larga ega bo'lib, ikkinchini tasdiqlaymiz

$$\begin{aligned} \|fg\|_{\log} &= \int \log(1+|fg|) d\mu \leq \int \log((1+|f|+|g|+|fg|)) d\mu = \\ &= \int (\log(1+|f|) + \log(1+|g|)) d\mu = \|f\|_{\log} + \|g\|_{\log}, \end{aligned}$$

bundan uchinchi tenglikning to'g'riliqi kelib chiqadi.

4-lemma. Takrorlanuvchi $L_{\log}(\Omega, \mu) \times L_{\log}(\Omega, \mu)$ dan $L_{\log}(\Omega, \mu)$ gacha ko'paytma uzluksiz.

I sbot. Biz $\{f_n\}_{n \geq 0}$ va $\{g_n\}_{n \geq 0}$ ketma-ketliklar $L_{\log}(\Omega, \mu)$ ga yaqinlashuvchi ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Mos ravishda $\{f_n g_n\}_{n \geq 0}$ fg ga yaqinlashadi. Qo'shimcha xossalansak, quyidagi tongsizlik hosil bo'ladi:

$$\|f_n g_n - fg\|_{\log} \leq \|(f_n - f)(g_n - g)\|_{\log} + \|f(g_n - g)\|_{\log} + \|(f_n - f)g\|_{\log}.$$

3-lemmadan foydalansak, quyidagi tongsizlikka ega bo'lamiz.

$$\|(f_n - f)(g_n - g)\|_{\log} \leq \|f_n - f\|_{\log} + \|g_n - g\|_{\log}$$

va bu yuqori chegarasi nolga teng bo'lib, $n \rightarrow \infty$ $K \geq 1$.

$E = \{x \in \Omega | f(x) > K\}$ bo'lsin. Keyin $\|\cdot\|_{\log}$ va 3-lemmaning subadditivligidan foydalangan holda bizda quyidagi tongsizlik hosil bo'ladi.

$$\begin{aligned} \|f(g_n - g)\|_{\log} &\leq \|f(g_n - g)\chi_E\|_{\log} \leq \|K(g_n - g)\|_{\log} + \|f\chi_E\|_{\log} + \|g_n - g\|_{\log} \\ &\leq (K+1)\|g_n - g\|_{\log} + \int_{\{|f| \geq K\}} \log(1+|f|) d\mu \end{aligned}$$

Bu yerda, χ_E E funksianing xarakteristik funksiyasi bo'ladi va $\chi_{E^c} = 1 - \chi_E$. Shunday qilib,

$$\limsup_{n \rightarrow \infty} \|f(g_n - g)\|_{\log} \leq \int_{\{|f| \geq K\}} \log(1+|f|) d\mu$$

hosil bo'ladi.

Ammo o'ng tomondagi integral 0 dan $K \rightarrow \infty$ intiladi, shuning uchun

$$\limsup_{n \rightarrow \infty} \|(f_n - f)g\|_{\log} = 0$$

Xulosa. $L_{\log}(\Omega, \mu)$ - bu to'liq metrikaga nisbatan topologik algebra, fazo topologiyasi. Shunga mos ravishda bundan keyin $L_{\log}(\Omega, \mu)$ bu topologik algebrani log-algebraasi deymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. F.J.Yedon. Isometries of non-commutative spaces. Math. Proc.Camb. soc. 90 (1981) 41-50 bet.
2. Dykema K., Sukochev F. and Zanin D. Algebras of log-integrable functions and operators. Arxiv 1509.
3. R.Abdullaev , V.Chilin. Isomorphic classification of *-algebras of log-integrable measurable functions. USUZCAMP 2017. Springer Proccedings in Mathematics and statistics 264. 73-83- bet.
5. Владимиров Д. А. Булевы алгебры, “Наука Москва”1969.
6. R.Abdullaev, B.Madaminov . Isomorphisms and isometries of F-spaces of log-integrable measurable functions. arXiv:33383988 [math.FA] 24sep 2020.
7. Yeadon F.J. Non-commutative L -spaces. Math.Proc.Cambridge Phil. Soc., 1975, v. p77, No1, p.91-102.
8. Абдуллаев Р.З., Мадаминов Б.А., Условие изоморфности коммутативных log□алгебр. Тезисы докладов конференции: Проблемы современной топологии и их приложения. Тошкент. 11-12 май 2017г,119-120.
9. Т.А. Sarimsoqov. Haqiqiy o'zgaruvchining funksiyalar nazariyasi. “O'zbekiston”, Tosh.1993.
10. M.S.Salaxitdinov. Integral tenglamalar. “Yangiyo'l polygraph service”, Tosh.2007.
11. Sh.A. Ayupov, M.A. Berdiqulov, R.M. Turgunbaev. Funksiyalar nazariyasi.Tosh. “O'AJBNT” Markazi,2004.
12. Sh.A. Ayupov, M.A. Berdiqulov, R.M. Turgunbaev. Funksional analiz. Tosh. TDPU.2014.
13. www. edu.uz
14. http:// ziyonet.uz – Ziyonet axborot- ta'lif resurslari portal
15. www. tdpu.uz
16. www.ziyouz.com
17. <https://kitobxon.com>

MASTERING THE ART OF WRITING LETTERS IN ENGLISH: TIPS AND TECHNIQUES

Po'latova Durdona Turg'un qizi

asadovaz172@gmail.com

+99890 667 72 37

Ilmiy rahbar: Feruza Kucharova Alisher kizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti ingliz tili o'qituvchisi

E-mail: feruza.kocharova@gmail.com

Annotation: "Mastering the Art of Writing Letters in English: Tips and Techniques" offers essential advice for improving letter-writing skills in both formal and informal contexts. The article outlines the structure and key components of a well-written letter, such as greetings, body, and closing remarks. It emphasizes the importance of clarity, politeness, and appropriate tone depending on the purpose of the letter. Practical tips are provided for composing concise and effective messages, whether for professional or personal use. Additionally, the article highlights the differences between traditional letters and emails, ensuring readers can adapt their writing style to different communication formats.

Keywords: Letter writing , Formal letters ,Informal letters, Email communication, Writing techniques,Professional correspondence,Polite toneStructure of a letter,Salutation,Closing remarks,Clarity in writing ,Concise writing, Communication skills, Business letters

Introduction

"Mastering the Art of Writing Letters in English: Tips and Techniques" focuses on the essential skills needed to effectively write both formal and informal letters in English. Writing letters is an important form of communication, whether for professional or personal purposes. The ability to write a clear, polite, and well-structured letter is vital in creating a positive impression and ensuring the message is received as intended. In formal letters, such as business correspondence, job applications, or official requests, the tone must remain professional and respectful. The structure typically includes a heading, salutation, body, and closing. In contrast, informal letters, written to friends or family, allow for a more relaxed tone, but still require clarity and consideration. The structure of informal letters is simpler, with a greeting, message body, and sign-off. Regardless of the type of letter, following the correct format is essential. For example, formal letters begin with the sender's address, followed by the date, recipient's address, a formal greeting, and a polite closing.

Informal letters may begin with a casual greeting and end with a friendly sign-off. Mastering these structures and knowing when to use specific phrases and tones will help you communicate effectively and professionally in English. Writing letters in English is a fundamental skill for both personal and professional communication. There are two main types of letters: formal and informal. Understanding the differences between them and knowing how to write each effectively is essential.

Formal Letters are used for professional or official communication. These letters require a polite, respectful tone and follow a specific structure. A formal letter should start with the sender's address, followed by the date. Next, the recipient's address is included, and a formal salutation is used, such as "Dear Mr. Smith" or "To Whom It May Concern." The body of the letter should be clear and concise, outlining the purpose of the letter. It is essential to use formal language, avoiding contractions and slang. The letter should end with a polite closing, such as "Yours sincerely" or "Best regards," followed by the sender's name and signature.

Informal Letters are typically written to friends, family, or acquaintances. The tone can be casual, friendly, and conversational. An informal letter usually begins with a friendly greeting, like "Dear John" or "Hi Sarah." The body of the letter is more personal, and it can include stories, jokes, or emotions. Informal language is acceptable, and contractions can be used. The letter usually ends with a casual sign-off such as "Best wishes," "Take care," or "Love." Unlike formal letters, informal letters do not require the sender's address or the recipient's address at the top.

In both types of letters, it is important to pay attention to the structure and tone. A formal letter should maintain a respectful tone and be structured according to conventions, while an informal letter should be more relaxed and personal, but still coherent and clear.

Analysis of Methods

Writing a letter in English requires a range of vocabulary and expressions to ensure clarity and politeness. Whether you are writing a formal or informal letter, knowing the right words to use can make a significant difference in how your message is received. Below are essential words and phrases to help you write effective letters.

1. Greetings/Salutations:

Formal:

Dear Mr./Ms./Dr. [Last Name]

To Whom It May Concern

Dear Sir/Madam

Informal:

Hi [First Name]

Dear [First Name]

2. Opening Phrases:

Formal:

- I hope this letter finds you well.
I am writing to [state purpose].
I would like to express my gratitude for...
I am writing with regard to...

Informal:

- How have you been?
I just wanted to let you know...
It's been a while since we last spoke.
Hope everything's going well with you.

3. Requests:

Formal:

- Could you please...?
I would appreciate it if you could...
I kindly request...

Informal:

- Can you do me a favor and...?
Would you mind helping me with...?
Could you please send me...?
Let me know if you can help.

4. Expressing Gratitude:

Formal:

- I sincerely appreciate your help.
Thank you for your attention to this matter.
I am grateful for your time and assistance.

Informal:

- Thanks a lot!
I really appreciate it!
Thanks so much for your help.
I can't thank you enough for...

5. Apologies:

Formal:

- I sincerely apologize for any inconvenience caused.

Please accept my apologies for...

I regret any confusion caused by... I would like to apologize for the delay in...

Informal:

Sorry about that!

I'm really sorry for...

My apologies for not replying sooner.

I didn't mean to upset you, sorry!

6. Closing Phrases:

Formal:

Yours sincerely

Yours faithfully

Best regards

Kind regards

With appreciation

Informal:

Best wishes

Take care

Cheers

Love

Talk soon

7. Common Phrases in the Body

Formal:

I would like to inform you that...

I am writing to inquire about...

Please find attached...

Informal:

I wanted to tell you that...

Just wanted to share that...

I can't wait to hear your response!

I'm excited to catch up with you

8. Offering Help:

Formal:

Please do not hesitate to contact me if you require any further information.

I am happy to assist you with...

Should you need any further assistance, please feel free to reach out.

Informal:

Let me know if you need anything.

If you need help with anything, don't hesitate to ask.
I'd be happy to help if you need it.
Feel free to get in touch if you need anything.

9. Sign-offs:

Formal:

Best regards,

Yours faithfully,

Sincerely,

Kind regards,

Informal:

Best wishes,

Cheers,

Take care,

See you soon

Mastering the vocabulary used in both formal and informal letters is essential for clear communication. The right words ensure that your message is polite, professional, or friendly, depending on the context. Whether you are expressing gratitude, making a request, or offering help, the appropriate phrases can significantly enhance the effectiveness of your letter.

Results Section

When mastering the art of writing letters in English, especially for formal or academic purposes, it is essential to develop certain skills and use precise, impactful vocabulary. Below are some recommendations:

1. Clarity and Conciseness: Ensure that your message is clear and to the point. Avoid unnecessary jargon or lengthy explanations that may distract the reader. Short, direct sentences often have the most impact.
2. Politeness and Formal Tone: Maintaining a polite tone is crucial. Use formal greetings and closings like "Dear Sir/Madam," "Yours sincerely," or "Kind regards." These phrases help to convey professionalism.
3. Use of High-Scoring Vocabulary: To enhance your letter and make it stand out, use strong, appropriate vocabulary. Words like "endeavor," "appreciate," "facilitate," "elaborate," and "collaborate" can elevate your writing. These words are often praised in academic and professional contexts.
4. Proper Structure and Organization: Organize your letter logically. Start with a polite salutation, followed by the purpose of your letter, the main points, and a closing statement. A well-structured letter makes it easier for the reader to understand and appreciate your message.
5. Error-Free Writing: To score highly in letter writing, make sure your letter is free from grammatical, punctuation, and spelling errors. Proofreading

is key to ensuring accuracy and professionalism in your writing. By integrating these skills and vocabulary tips, you can create letters that are not only effective in conveying your message but also showcase your proficiency in English writing.

Discussion Section

Mastering the art of writing letters in English is essential for both personal and professional communication. During discussions on this topic, experts often highlight several key aspects of effective letter writing. These include understanding the purpose of the letter, choosing the appropriate tone, and ensuring the letter is clear, concise, and error-free. As the art of letter writing evolves with the times, many experts stress the importance of adapting to different styles for various audiences and purposes. One of the central points discussed by experts is the importance of clarity and conciseness. Many argue that a letter should be direct and to the point, especially in professional settings where time is of the essence. Dr. Emily Johnson, an expert in communication skills, notes, "In today's fast-paced world, it's vital to communicate your message clearly without unnecessary details. The reader should understand the purpose of the letter within the first few lines." This sentiment is widely accepted in the realm of business correspondence, where brevity is often valued. Another critical element discussed during conversations on mastering letter writing is the tone of the letter. While the content is important, the tone sets the foundation for the overall message. Different types of letters require different tones. For example, a cover letter or a formal complaint letter demands a polite, respectful, and formal tone, while a thank-you note or a casual letter to a friend allows for a warmer, more personal tone. John Roberts, a business communication consultant, emphasizes, "Understanding your audience is key to choosing the right tone. A letter that is too formal can come across as cold, while an overly casual letter might appear unprofessional." Moreover, many discussions touch on the significance of proper grammar, spelling, and punctuation. These elements are vital for presenting a professional image and ensuring that the message is well-received. Experts argue that even a small error can detract from the credibility of the letter. "Proofreading is essential," states Sandra Lee, a professional writing coach. "Many people overlook the importance of reviewing their letters before sending them, but this step is crucial for making a lasting impression." In addition, the structure of the letter plays a pivotal role in its effectiveness. The letter must be organized in a way that allows the reader to easily follow the message. Experts suggest a clear format: starting with a formal greeting, followed by an introduction of the purpose of the letter, the main content, and a polite closing. This structure not only helps with readability but also ensures that the letter conveys its message effectively. Experts also discuss the role of personalization in letter writing. While following the proper format and maintaining professionalism is essential, adding a personal touch can make a letter

stand out. For example, including a specific detail related to the recipient or referencing a shared experience can create a sense of connection. "Personalization can make the difference between a forgettable letter and one that leaves a lasting impression," notes Elizabeth Clark, a marketing consultant. . The art of writing letters in English requires a blend of technical skills, clarity, and emotional intelligence. Experts agree that by focusing on the right structure, tone, and language, anyone can improve their letter-writing skills. Whether it is for business or personal use, mastering this art is essential for effective communication in today's world.

Conclusion

5. Kuzmichev D.E., Rannev A. Yu, Vilsev I M., Retivых O. Yu. Ekspertnoe nablyudenie klinicheski ne raspozannogo residiviruyushcheho infarkta miokarda na ambulatornom etape //Vestnik sudebnoy meditsiny. Nauchnyu prakticheskiy журнал. Novosibirsk, 2013. – Т.2. - №2. – S. 52-55.
6. "Murda sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish qoidalari". O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 153-sonli buyrug'iga 1-ilova. 2012 yil 01 iyun.

Mualliflar haqida ma'lumot:

1. Ibragimov Ikromjon Saidaxmetovich, RSTEIAM Toshkent viloyat filiali, Ambulatoriya bo'limi mudiri, birinchi toifali davlat sud eksperti. Telefon: +998(90)-924-13-72,
2. Shodiev Gafur Barotovich, RSTEIAM Toshkent viloyat filiali boshlig'i, falsafa fanlar doktori.
Telefon: +998 (99)- 099- 19-67.
3. Pirmatov Yusub Sadullaevich, RSTEIAM Toshkent viloyat filiali Tashkiliy uslubiy bo'lim mudiri, birinchi toifali davlat sud eksperti Telefon: +998 +998(90)-097-77-00.

QOBUSNOMA – НІКМАТЛАР САНДИГІ

Farangiz Abdurahmonova Husan qizi*Termiz davlat universiteti talabasi*farangizabdurahmonova05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors adabiyotining eng taniqli adiblaridan biri Kaykovusning pand-nasihat ruhi bilan sug'orilgan shoh asari "Qobusnoma" badiiy tahlilga torilgan. Binobarin, ushbu asardan o'rın olgan mo'jaz va go'zal hikoyatlar talqin etiladi va qissadan hissa chiqariladi.

Kalit so'zlar: didaktik adabiyot, "Qobusnoma", hikoyat, badiiy tahlil, adabiy an'ana, hamd, na't.

Dunyo adabiyotida yaratilgan jamiki didaktik, pand-nasihat ruhida bitilgan asarlarni nasihatlardan iborat bir ganj desak, Kaykovusning "Qobusnoma" asarini bu xazinaning la'l-u gavharlarga to'la eng katta sandig'i deb bemalol aytishimiz mumkin. Butun dunyoda, xususan, Sharq adabiyotida Kaykovusgacha ham hikmatlar va naqllarga boy durdona asarlar yaratilgan. Jumladan, bu turdag'i asarlarning ibtidosi hamda hind xalq eposining noyob boyligi hisoblangan "Kalila va Dimna", turkiy adabiyotning go'zal namunasi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", fors adabiyotining gultojlaridan biri shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari Kaykovusga ibrat mifikini o'tagan. Ushbu asarlarning barchasini umumiylilik hamda mushtaraklik bog'lab turadi. Negaki ularning barida mavzu asosan farzand tarbiyasi, komillikka intilish, bu yo'ldagi eng zarur ilmlar hamda jamiki insoniyat uchun dasturilamal bo'lishi kerak bo'lgan latif fazilatlar va ularning xususiyatlari o'tkir qalamlarda ochib berilgan. Shuningdek, ularni mahkam bog'lab turgan iplardan biri didaktikadir. Didaktika – yunoncha "didaktikos" so'zidan olingan bo'lib, "ibratli", "ta'lim beruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Didaktik adabiyot tushunchasi esa nasihat, o'git, ibrat, pand ruhidagi asralarni o'z ichiga qamrab oladi.

Binobarin, Kaykovusning "Qobusnoma"si ham didaktik adabiyotning eng yuksak namunasidir. U bu asarni o'sha davr adabiyot an'anasiga muvofiq bobosi samaviylar xonodoniga mansub, G'arbiy Eron podshosi Qobusga bag'ishlab "Qobusnoma" deb nomlaydi. Asar Kaykovusning o'g'li – Gilonshohga "nasihatnoma" vazifasini o'taydi, buni asarning deyarli har bir sahifasidagi "Ey farzand" undovi ham isbot etadi ham bu asar aynan shu maqsadda yozilgan edi. "Qobusnoma" asaridagi o'gitlar go'yo faqat bir insonga – Gilonshohga qarata aytilgandek tuyilsa-da, aslida, bu naqllar har bir inson uchun o'rnak bo'la oladi.

Chunonchi, bu asarning xalq orasida “Nasihatnoma” nomi bilan ham shuhrat qozongani beziz emas, albatta.

Barcha pand-nasihat tipidagi asarlarning tub asosini Islom dinining mukammallikda tengsiz, buyuk Qur’oni Karim hamda payg‘ambarimiz so‘zлari – hadislar tashkil etadi. “Qobusnoma” da ham adib ushbu an’anadan voz kechmagan holda asarning ilk bobini “Parvardigori olamni tanimoq zikrida” hamda ikkinchisini “Payg‘ambarlarning hilqati zikrida“ deb ataydi. Sharq adabiyot an’anasiga ko’ra har qanday asar avvalo Alloh nomi bilan boshlanishi, unga shukr hamda maqtovlar aytlishi lozim, bunday muqaddima adabiyotda **hamd** deb yuritiladi. Bundan tashqari, hamddan so’ng doim **na’t** kelishi shart, na’t esa “sarvar-ul anbiyo” Payg‘ambarimizni olqash demakdir. So’ngra asarda odamzod uchun eng kerakli xislatlar haqida so‘z boradi va ular ixcham hikoyatlar va go‘zal naqllar orqali o‘quvchi qalbiga singdiriladi. Misol uchun, “Hunar afzunlig‘i bila baland qadr va oliy ta’b bo‘lmoq zikrida” bobida shunday hikoyat keltiriladi: Buyuk podshoh Xusrav Parvizning saroyiga Rumdan elchi tashrif buyuradi. U elchining oldida o‘zining qudratliroq ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lib dono vaziri Abuzurjmehr bilan maqtanmoqchi bo‘ladi va undan so‘raydi: “Hamma narsa borki, ularning barini sen bilarsan” desa, u hammasini bilmasman, deb javob beradi. Unda hamma narsani bilguvchi kimdir, deya qayta so‘raydi. Uning oqilona javobi shunday bo‘ladi: “Hamma narsani bilguvchi onadan tug‘ilmagan”. Bu so‘zlar Abuzurjmehr shaxsini ohib beradi va nodonligini tan olgan inson haqiqiy donodir degan naqlga teng keladi. U ham hamma narsani bilolmasligini tan oladi va hamma narsani bilguvchi zot yagona Allohdir hamda ul zot onadan tug‘ilmagan ekanligini aytadi. Bu uning nodon, bilimsiz va g‘ofil ekanlididan emas, aksincha, bilmasligini tan olgan haqiqiy donishmand ekanlididan dalolatdir. Chunki ilm ham xuddi bahr yanglig‘ cheksiz, chegarasiz, uning so‘nggiga esa hech inson bolasi yetib borolmaydi. Bundan tashqari, bu hikoyatdan har qancha dono bo‘lsang ham, biliming bilan kibrланма, degan xulosa kelib chiqadi.

“Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida” bobida ham yana bir hikoyat keltiriladiki, Abuzurjmehrdan bir ayol savol so‘raydi. U bilmayman degandan keyin, xotin ta’na qila boshlaydi. Shu narsani bilmaysan-u qanday qilib podshohning yonida maslahatchi bo‘lib, non yeyapsan, deydi. Abuzurjmehr esa hozirjavoblik bilan men bilgan so‘zim uchun haq olaman, bilmaganim uchun podshoh menga hech narsa bermaydi, deb aytadi. Qissadan hissa shuki, avvalambor, inson har qanday vaziyatga tayyor va zukko bo‘lishi kerak, shunda Abuzurjmehrga o‘xshab ta’na-malomatdan, shallaqilikdan abjirlik bilan qutulib qoladi. Ikkinchidan, odam o‘zgalarni to‘liq bilmagan holda ularga ta’na toshlarini yog‘dirmasligi kerak.

“Qarilik va yigitlik sifati zikrida” bobida esa yuz yoshli nuroniydan bir yigit: “Ey shayx, bu asoni qanchaga olding, men ham olay?”, - deb so‘raydi. Mo‘ysafid esa

umr va sabr topsang, bu asoni tekinga berurlar, deydi.Xulosa shuki, bahor hamisha bahorligicha qolavermaydi, albatta, undan so‘ng yoz, kuz va qish keladi, ya’ni yigitlik foni, o’tkinchi, undan keyin esa,shubhasiz, qarilik eshik qoqib keladi.Yigitlik g‘animat, qarilik esa hikmat. Shunday ekan, inson har narsani o‘z vaqtida qadrlashi kerak, yoshlikni ham, qarilikni ham. Umr o’tkinchi, ko‘z ochib yumguningizgacha umringizning xazon fasliga yetib kelganingizni sezmay ham qolasiz. Shu o‘rinda Ahmad Yassaviyning hikmatli so‘zi fikrimizning yorqin dalilidir.

*Beshak biling bu dunyo, barcha eldin o ‘taro
Ishonmag ‘il molingga bir kun qo ‘ldan ketaro
Ota-on, qarindosh qayon ketdi fikr qil
To ‘rt oyog ‘liq cho ‘bin ot bir kun senga yetaro.¹*

Asar nafaqat odob-axloq, balki inson uchun muhim bo‘lgan odatlar: uxlamoq, hammomga bormoq, hatto mehmon qabul qilmoq haqida ham turli-tuman qimmatli o‘gitlar keltirilgan. Asarning “Mehmon bo‘lmoq va mehmon olmoq zikrida” bobiga tegishli bir mo‘jaz hikoya bor. Arab xalifasi bir asirni o‘ldirmoqchi bo‘lganida asir undan bir kosa suv bilan mehmon qilishini so‘raydi. Xalifa uning iltimosini ado etgach, asir: “Men senga mehmon bo‘ldim. Agar an’analarga qarshi chiqib , meni o‘ldirmoqchi bo‘lsang, marhamat. Lekin meni mehmonlik hurmatim uchun dordan asrab qolsang, gunohlarimga tavba qilay va bu ishni takrorlamay”, - deb taklif bildiradi. Shoh esa uning zakosiga qoyil qolib hamda mehmonligini inobatga olib uni afv etadi. Hikoyatning xulosasi o‘laroq, shuni ta’kidlash mumkinki, mehmon har qanday davrda ham, har qanday joyda ham qadrlanishi zarur. Zero dono xalqimiz mehmon otangdek ulug‘ , deya bejiz aytmagan.

Shuningdek, asarda “Podshoga xizmat qilmoq zikrida” shunday deyiladi. Bir podshohning vaziri shunday yovuz niyatli va zolim ediki, shohga shunday derdi:

-Ozod odamga tegma, gunoh qildimi, o‘ldir. Podshoh uning so‘zlariga uchib, mamlakatning necha-necha ulug‘vor kishilarini o‘ldirib yubordi. Alqissa, bir kuni xato qilganida uni ham zindonga soldilar. Vazir yolvorib sultondan rahm qilishini so‘raganida: -Buni menga o‘zing o‘rgatding, men endi bu yo‘limdan qaytmayman, - degan javobni oldi va dorga osildi. Avvalo, podshoh yoniga maslahatchi olayotganida kishining faqat bilimi va chapdastligiga emas, uning niyati va dunyoqarashiga ham e’tiborli bo‘lmog‘i darkor, Aksincha, bunday davlat uzoqqa bormagay. Buni Fitratning “Abulfayzxon “ dramasi ham mohirlik bilan yoritib bera olgan. Asarda podsho nifoq sochuvchi va kinchi vaziri Ulfatning gaplariga quloq solib, davlatning

¹ Adabiyot 8-sinf uchun darslik. S.Ahmedov va boshqalar. Toshkent-2019. 58b

buyuk chinorlarini o‘z qo‘li bilan qulatadi. Va bu hodisalar podshoning o‘limiga, balki butun bir sulolaning intihosiga olib keladi. Bundan tashqari, Navoiy bobomiz yozganidek:

Har kimki birovg ‘a qozg ‘oy choh

Tushgay ul choh aro o ‘zi nogoh. ²

Ya’ni yovuz vazir qilmishiga yarasha jazo topdi.

Muxtasar qilib aytganda, “Qobusnoma” o‘sha davrning dolzarb mavzularini, hattoki insonning har bir qirrasini ochib beradigan mavzularni ham qamrab olgan. Eng ahamiyatlisi, asar bugungi jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan texnika asrimizda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Ishonchimiz komilki, bu asar asrlar mobaynida har bir yosh avlod uchun tarbiya beshigi bo‘lib xizmat qilajak!

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Kaykovus. Qobusnoma. “Yoshlar matbuoti”. Toshkent - 2024
2. Adabiyot asoslari. T.Boboyev. “O’zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2002
3. Sab’ayi sayyor. A.Navoiy. G’afur G’ulom nashriyoti. Toshkent-1991

² Sab’ayi sayyor. Alisher Navoiy. G’afur G’ulom nashriyoti. Toshkent-1991. 491b

QISSASI RABG`UZIY ASARIDA RIVOYA VA HAYOTIY TRADITSIYALAR

Jasmina Shermo`minova Shavkat qizi

Termiz davlat universiteti o`bek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

jshermominova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qissasi Rabg`uziy” asari yaratilish tarixi, undagi rivoyatlarning bugungi kun bilan bog`liqlilik tomonlari hamda badiiy xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so`zlar: “Qissasi Rabg`uziy”, rivoyat, diniy qissa, nasriy uslub, o`zbek adabiyoti.

Annotation: this article will highlight the history of the creation of the work “Story Of The Lord”, the aspects of the connection of the narratives in it with today, as well as the artistic features.

Keywords: “Story Of The Lord”, narration, religious narrative, prose style, Uzbek literature.

“Qissasi Rabg`uziy” asari Rabg`uziy (taxallusi; asl ismi-sharfi Nosiruddin Burhoniddin o`g`li) (13-asr oxiri – Xorazmning Raboto`g`uz mazeyi-14-asr boshlari) tomonidan yozilgan. Rabg`uziy Raboto`g`uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og`zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to`g`risidagi qissalarini chuqur o`rgangan. Quroni Karim nozil bo`lganan to bugungi kunga qadar juda ko`p payg`ambarlar haqida asarlar yozilgan. Ilk namunalar arab tilida, keyinchalik esa fors tilida yozilgan. Turkiy tilda esa ilk payg`ambarlar tarixi haqida mufassal bayon etib beruvchi asar “Qissasi Rabg`uziydir”. Ushbu asar musulmon mog`ul beklaridan bo`lgan Nosiruddin To`qbo`g` aning topshirig`i bilan yozilgan. Qur’oni Karimdagagi ba’zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Ishoq Nishopuriyning «Qisas ul-anbiyo»sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi, so‘ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma’lumot beruvchi qisqa so‘zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72 qissadan iborat. Mavzu doirasiga ko‘ra, asar qissalari juda rang-barang. Olamdagи butun mavjudot egasi bo‘lgan Allohoi ulug‘lash, payg`ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-onha va farzand munosabatlari, erk vaadolat mavzulari shular jumlasidandir. Qissalar hajmi turlichay: Masalan, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadangina iborat. Asarning birinchi qismi Odam alayhissalomdan Yusuf alayhissalom qissasigacha sharhlangan.

Asarning syujetiga keladigan bo`lsak, muallifning e`tiroficha, insonlar mavjud bo`lmasdan avval ham mavjudlik mavjud bo`lgani uchun voqealarini ana shu ilk mavjudlik voqealaridan boshlaydi. Ya`ni avvalgi qissa yer, ko`k, mavjudotlar, jin, dev, parilar hukmronligi, so`ngra insonning yaratilishiga ehtiyoj tug'ilishi voqealaridan boshlanadi. Bu voqealar konkret ilmiy xarakterga ega bo`lmasa-da, lekin olam va odamning avvali haqida ma'lum tasavvurlar beradi. Qolgan qissalar payg'ambarlar va payg'ambarlashtirilgan shaxslar to'g'risidadir. Birinchi qissa Odam alayhissalom qissasi bilan boshlanishini yuqorida e`tirof etdik, endi undagi hayotiy realliklarga mos keluvchi voqealarini bayon etamiz:

1. Asarda nomozda ikki marta sajda qilinishiga sabab qilib Azozil, ya`ni shaytonning Odam Atoga sajda qilmaganidan keyin unga farishtalar shukr qilib ikkinchi marta sajda qilishadi. Nomozda ikki marta sajda qilinishini ushbu voqeaga bog`lagan.

2. Ayollarning yoshi o`tishi bilan chiroyining ketishini esa Momo Havvoning etdan, ya`ni Odam Atoning qovurg`asidan yaratilgani sabab qilib ko`rsatiladi. Erkaklar tuproqdan yaratilgani sabab qariganda navqiron bo`lishadi xuddiki, Odam Ato singari.

3. Momo Havvo taqiqlangan mevani Odam Atoga berganda uning va`dasi esiga tushib yutayotgan mevasi bo`g`zida qoladi. Shu sababdan erkaklarning bo`ynida yumaloq narsasi bor, ayollarda esa mavjud emas.

4. Anjirning po`shti ham, ichini ham yeyilishiga sabab esa Odam va Havvoga besh dona barg bergani uchun Alloh tomonida jazolangan, ya`ni hamma mevalarning ichi yeyiladi yoki po`sti yeyiladi. Anjirni esa ikkala qismi ham yeyiladi.

5. Odam Ato yerga tushganda birinchi itning boshini silagan shu sabab ham inson umrining oxirigacha it unga vafodor bo`lib qolgan. Hadislarda ham Asobi Kahfning iti jannatga kirishi bayon etilgan.

Nuh alayhissalom qissasida qolgan qissalar kabi kofir bo`lgan va sarkashlik qilgan bandalarga Olloh tomonidan jazo, ya`ni to`fon yuboriladi. Uning syujetida ham Odam alahissalom qissasi kabi hayotiy reallik bilan bog`liq voqealar mavjud.

1. Chivinning g`o`ng`illashiga sabab u odamning go`shtini shirinligini aytganda qaldirg`och tilini sug`urib olishi keltirilgan. Shu o`rinda ta`kidlabo`tilganki, shundan buyon ilon qurbaqanining go`shtini yeydi.

2. Nuhning kemasida axlat ko`payganda tuyaning orqasini silaydi va undan to`ng`iz paydo bo`ladi. Ahladlarni to`ng`iz yeydi. Shu sababdan ham to`ng`iz go`shtini yeyish bugungi kunda xarom hisoblanadi.

3. Nuhning kemasi tog`ning ustiga tushgandan so`ng olaqarg`ani xabar olgani yuboradi. Unga xo`roz kafillik qiladi. Qarg`a qaytmagani uchun xo`roz izidan

qichqirib, uchaman deganda Nuh alahissalom uni orqasidan silab, ushlab qoladi. Shu sababli tovuqlar ucholmaydi deya asarda ta`kidlangan.

4. Yana bir rivoyatida keltirilishicha qarg`adan keyin kabutarni yuboradilar. U balchiqqa botadi va shu balchiqdan patlar o`sib chiqadi, shu sababli ham kabutar avlodiga patlar me`ros bo`lib qoladi. Bundan tashqari qo`ngan joyi qo`lansa bo`lgani uchun uning oyoqlariqizil degan qarashlar asarda o`z aksini topgan

“Qissasi Rabg’uziy”ga diniy xarakterdagи bir asar sifatidagina qaramaslik kerak. Chunki asarda diniy ruhga nisbatan inson xayoti, kelajagi va real borliq bilan bog’liq dunyoviy ruh ustun darajadadir. Asar tom ma’nodagi ilhom manbaiga aylanishi mumkin bo’lgan nodir yodgorlikdir. Bundan tashqari asarda hamma uchun muammoli va sirli shaxs bo`lgan Iskandar Zulqarnayn haqida ham ma`lumot bergen. Zulqarnaynga oid ilk manba Qur’oni Karim bo‘lib, “Kahf” surasining 83: 98 oyatlarida u haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ushbu muborak manbadal Iskandarning avval g‘arbga borib, bir qavmni to‘g‘ri yo‘lga chaqirishi, keyin esa Sharqqa borib boshqa bir qavmni hidoyatga chorlashi ta’kidlanadi. Rabg’uziy ham Zulqarnayn haqida Qur’oni Karimga asoslanib yozganligi keltirilgan misollaridan ko‘rinib turadi. Masalan: “Zulqarnayn Iskandariya nomli joydan bo‘lgani uchun Iskandar deb ataldi. Zulqarnayn ham unga keyinchalik berilgan nom bo‘lib, yer yuzining mag‘ribidan mashriqigacha bosib olib, bo‘yinsundurgani uchun shunday ataldi. Qarn arab tilida muynuz(munguz, shox) demakdir. Ikki muynuzlik degan ma’noni anglatadi. Zulqarnayn boshidagi kiyimi(dubulg‘asi)da oltindan ikkita shox bor edi. Alloh Taolo unga payg‘ambarlik yubordi. Urdilar shoxlari sindi. Yana aytishlaricha, u ikki qarnli bo‘lib yashagan edi. Yana uning payg‘ambarligiga ham ixtiloflar bor. Ba’zilar payg‘ambar edi dedilar, ba’zilar Olloh yorliqagan malik edi dedilar.

Xulosa o`rnida shu aytish joizki, asarda ma’rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va b.), qissalardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va b.). Rabg’uziyning bu asari o‘zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13—14-asrlar eski o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qissaning 15-asrga oid qo‘lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, 16-asrda ko‘chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, 19-asrda ko‘chirilgan qo‘lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. 1025, 7397, 1874) saqlanadi. “Qissasi Rabg’uziy” hikmat va ibrat bilan boyitilgan asardir. Unda insonning ezgulik, halollik vaadolat yo`lidagi harakatlari yuksak qadrlandi. Asar orqali inson o`zining komil shaxs sifatida shakllanishida sabr, donishmandlik va mehr-muhabbat muhim o`rin tutishini tushunadi. Shuningdek, Rabg’uziy insoniyat tarixidagi payg‘ambarlar va oliyjanob insonlarning hayotidan ibratli lavhalar taqdim

etib, o`quvchini ezgu yo`lga chorlaydi. M a`naviy yetuklik va ruhiy poklik bu asarning bosh g`oyasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES):

1. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
3. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, 1969.
4. Fozilov E. Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. 1-kitob, 1990.

Internet saytlari:

1. kh-davron.uz.com
2. gujum.uz.com

UMAR XAYYOMNING “NAVRO’ZNOMA” ASARIDA QO’LLANILGAN DETALLAR VA ULARNING BADIY TAHLILI

Muborak O’rozova

Termiz davlat universiteti

O’zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Umar Xayyomning “Navro’znomma” asarida tilga olingan tushunchalar – arpa, may, oltin va boshqa tabiiy unsurlar hamda ularning xususiyatlari o’rganilgan. Ushbu tushunchalar nafaqat shifobaxshlik nuqtayi nazaridan, balki ularning hayotiy va falsafiy ma’no noziklari tomonidan ham tahlilga olingan.

Kalit so’zlar: Umar Xayyom, “Navro’znomma” asari, oltin, may, arpa, shifobaxshlik, badiiy uslub va tabiat unsurlari.

Sharq adabiyoti va ilm-fanining buyuk namoyandalaridan biri bo’lmish Umar Xayyom o’z davrining ulkan faylasufi, matematik olimi va shoiri sifatida dunyoga tanilgan. Uning “Navro’znomma” asari qadimiy madaniyatimizning noyob meroslaridan biri bo’lib, nafaqat zamonaviy ilm-fan uchun, balki falsafiy va hayotiy qarashlar uchun ham qimmatli va bebahoh manba hisoblanadi.”Navro’znomma” – navro’z bayramiga bag’ishlangan dastlabki yozma badiiy asar deb qaraladi. Bu haqida Hamidjon Homidiyning “Daholar davrasи” da berilgan ma’lumotga ko’zimiz tushadi:

”Navro’znomma“ asari juda katta tarixiy, ma’rifiy ahamiyatga ega. Zeroki, unda muallif Sharq xalqlarining qadimiy udumlarini, xususan, Navro’zning xalq bayrami sifatida rasm bo’lishi tarixini batafsil yoritgan, u bilan bog’liq naql-u rivoyatlarni keltirgan. ”Navro’znomma“ omiyona til –xalq jonli tiliga yaqin bir ibora ifodalarda yozilgani uchun yengil o’qiladi. U XII asr forsiy tildagi nasrning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.¹ Asarda Xayyom tabiat va inson hayotini chuqur o’rgangan holda turli narsalarning tabiiy xususiyatlari va hayotiy ahamiyatini qalamga oladi. Xususan, ”Oltin va uning to’g’risida nimalarni bilish kerakligi haqida“ deb nomlangan bobida aynan shu haqida gap ketgan. Unda aytilishicha, oltinning quyidagi xislatlari mavjud: birinchisi, uni tomosha qilish ko’zga nur, qalbga quvonch beradi; ikkinchisi, u odamni jasur qiladi, aqlni kuchaytiradi; uchinchisi, yuzning husniga husn qo’shadi, yoshlikni munavvar etadi va qarilikni uzoqlashtiradi; to’rtinchisi, lazzatni kuchaytiradi va kishilar ko’zida uning qadrini orttiradi. Bundan tashqari, go’dak oltin ko’zadagi

¹ H.Homidiy. Daholar davrasи. ”O’qituvchi“ nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent: 2011. 102 – bet.

sutdan berib boqilsa, u yaxshi gapira boshlaydi va odamlarga yoqimtoy bo'ladi, mard o'sadi, tutqanoq kasaliga chalinmaydi, tushida qo'rqlamaydi, agar uning ko'zlariga oltin cho'pda surma surtilsa, umuman yoshsanmaydi va ko'zi ravshanlashadi. Yurakning g'am va bezovtalikdan aziyat chekishini oltin va kumush bilan, qabziyatni ud, mushk va ipak bilan, qon bosimini qahrabo va quritilgan mevalar bilan, qon quyulishini dur va ipak bilan shifo topishi mumkinligi aytib o'tilishi orqali bizga tabobatga doir qimmatli ma'lumotlar ham aynan "Navro'znama" asari vositasida yetib kelgan. Yuqoridagi fikrlardan oltin insonlarning moddiy ehtiyojini qondiradigan qimmatbaho narsa ma'nosini emas, balki shifobaxshlik xususiyatini ifodalab kelishi anglashiladi.

"Arpa va uning haqida nimalarini bilish kerak" bobida Ajam podshohlari arpani sog'lik uchun foydali sanalgan tabiat unsuri deb aytishgan. Bundan tashqari bu bobda arpa haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: arpa dorilikka ham, yemakka ham yaraydi. Aytishlaricha, uni yeganda qon hech qachon buzilmaydi va tomirdan qon olishga hojat qolmaydi. Yana u qon va safro kasalliklarining oldini oladi. Iroq tabiblari uni "ajab qutlug' don" deydilar. U ma'lum yigirma to'rt xil – kuyuk, zotuljanb, bezgak, terlama, yo'tal, isitma, bo'g'in og'rig'i va gjijaga qarshi dori sifatida foydali. Agar biror odamning oyog'i va tizzasida changak kasali bo'lsa, oyog'ini arpa suviga solishi zarur, shunda u tuzalib ketadi. Aytadilarki, agar oy tutilgan paytda arpa sepish mumkin bo'lsa, sepadilar, undan qilingan non telbalarga shifo bo'ladi. Shuningdek, yilning yaxshi yo yomonligi ham arpaga qarab aniqlangan. Agar arpa tik va qalin o'ssa, bu yil serhosil, agar qiyshiq va yakkam-dukkam o'ssa, demak, yil kamhosil bo'ladi. Rivoyatda keltirilishicha, Rasul alayhissalom "Nonlar ichida eng yaxshi non - arpa noni, kim unga qanoat qilsa, u uni to'ydiradi, chunki bu mening nonim, barcha payg'ambarning noni", - degan ekan. Bu bobda arpa oddiy bir don emas, balki hayotiy quvvat va shifoning manbayi sifatidada ko'rsatilgan hamda biz bu bilan uning hayotimiz uchun benihoya qadrli ekanligini ham anglab olamiz.

"Lochin va uning fazilatlari" deb nomlangan bob lochinga berilgan sifatlarga bag'ishlangan, shuningdek, lochinning xatti- harakatlari zamirida yashirinib yotgan hodisalar haqida hikoya qilinadi. Lochinning xulqi o'zining nozikligi va pokizaligi bilan podshohlarning xulqiga o'xshaydi, shuning uchun ham lochin podshohlar ulfatidir. To'rt oyoqli giyohxo'r hayvonlarning podshohi – ot, pokiza gavharlarning podshohi – yoqt, ma'danlar podshohi – oltin bo'lganidek, go'shtxo'r hayvonlarning podshohi – lochin hisoblanadi. Shu jumladan, podshohlar lochinni tomosha qilishning yaxshi alomati bor deyishadi, chunki ularning harakatlari qandaydir voqeа yuz berishidan xabar beradi. Masalan, lochin podshoh qo'liga tez o'tirib, uning yuziga qarasa, bu holat podshohning yangi hokimiyatga egalik qilishidan darak beadi. U ko'tarilayotganda boshini egib turib ko'tarilsa, podshohlik ishlarida tanazzul yuz

berishini ifodalaydi. O'ljasini tutib, qiyqirib qaytsa, qo'shinda g'alayon bo'lishini bildiradi. Agar ko'tarilish paytida ovni ololmasa, zarar ko'riliши mumkinligini anglatadi. Agar u o'ng ko'zi bilan osmonga qarasa, podshohlik ishlari yuksaladi, bordi-yu chap ko'zi bilan qarasa, zarar bo'ladi. Lochin ovloqda boshqa lochin bilan jang qilsa, yangi dushman paydo bo'ladi. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, Umar Xayyom o'z asarida lochinni kuch, jasorat va donishmandlik ramzi sifatida aks ettiradi. Asarda lochin o'zining yuksak fazilatlari bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. U ko'pincha mustaqillik, qat'iyat va yuqori maqsadlarga erishish timsoli sifatida gavdalantirilgan.

"Mayning foydasi haqida " deb nomlangan bobda mayning foydalari, xususiyatlari va ahamiyati haqida alohida to'xtab o'tilgan. Abu Ali ibn Sino, Suqrot va hatto Gippokrat ham maydek inson tanasi uchun foydaliroq narsa yoq deb aytishgan. Ayniqsa, uzumdan qilingan talx va suzuk musallas. U g'amdan forig' qiladi, qalbni quvontiradi, semirtiradi, quyuq ovqatning hazm bo'lishiga yordam beradi, xotirani o'tkirlashtiradi, xasisni saxiy, qo'rkoqni jasur qiladi va kasalliklarni kamaytiradi. Jannatda ne'matlar ko'p, ammo may jannatning eng a'lo ne'mati ekanligi ko'pchilikni hayrat dengiziga uloqtirsa ajabmas. Loyqa may damlikni hamda loqaydlikni yo'qotadi va oshqozondagi og'riqni tuzatadi. Ammo uning foydasi bilan bir qatorda zararli tomonlari ham mavjud. U insonni bir lahzaning o'zida insonlik doirasidan chiqarib yuborishi mumkin. Bekorga Izid alayhissalom: "U insonlarga foydali, ammo gunohi foydasidan ko'proq" , - deb aytmagan. Ammo dono insonlar shunday ichadiki, foydasi gunohidan ko'proq sanaladi. Diqqat qiladigan bo'lsak, tasavvufiy va falsafiy ruhda yaratilgan asarlarda yo ko'p g'azallarda lirik qahramon yo muallif yoriga "ey soqiy" deb murojaat qilib, menga to'ldirib may quy, degan holatlarga ham duch kelganmiz. Bunda may majoziy ma'noda qo'llanilib , Allohga bo'lgan ishqni ifodalaydi.

"Navro'znama " asarida may, lochin va arpaning foydalari va fazilatlaridan tashqari dafinalarning alomatlari, uzukning xislatlari, qilich, o'q va yoyning hayotdagi ahamiyati, qalam va uning xosiyatlari, ot va boshqa hayvonlarning fazilatlarini ham ko'ramiz, ularga alohida, yetarlicha izohlar keltirilgan hamda qimmatli ma'lumotlar yoritilgan.

Ushbu maqolamdan xulosam shuki, Umar Xayyomning "Navro'znama" asari inson hayoti, tabiat va uning shifobaxsh unsurlari haqida chuqur falsafiy qarashlarni mujassam etgan nodir durdona sanaladi. Asarda tilga olingan arpa, may kabi tushunchalar oddiy hodisalardek tuyulsa-da, ularning mohiyatida hayotning mazmunini anglashga chorlovchi katta hikmatlar yashiringan. Muallif arpa orqali mehnatsevarlik va shifobaxshlikni ulug'lasa, may orqali ruhiy yuksalish va ilhom manbayini yoritadi. Asarda tilga olingan tushunchalar haqidagi qimmatli ma'lumotlar

faqat o'z davri uchun emas, balki bugungi va hatto kelajak uchun ham aloqador hamda o'z mavqeyini yo'qotmaydi, shuning uchun "Navro'znama" nafaqat madaniy meros, balki abadiy hikmat va haqiqat xazinasi hisoblanib, hamisha qadrlanishga arziydi, shuningdek, adabiyot xazinasidan munosib o'rin egallaydi hamda bu o'rindan aslo tushmagay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Homidiy. Daholar davrasi. "O'qituvchi" nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent: 2011. 102 – bet.
2. N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi."Sano-standart" nashriyoti. Toshkent. 2017.
3. U. Xayyom. Navro'znama."Mehnat" nashriyoti. Toshkent. 1990.

KONSTITUTSIYANING ASOSIY TAMOYILLARI

Andijon davlat chet tillari instituti

Roman-german va slavyan tillari fakulteti

*Ijtimoiy gumanitar fanlar pedagogika va
psixologiya kafedrasi dotsenti*

Orziqulov Xusnidin To'lqin o'g'li

Nemis tili ta'lif yo'nalishi bakalavr 2-kurs talabasi

Jaloldinov Muhammadsayid Sardorbek o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning asosiy tamoyillari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Konstitutsiyaning mamlakatda ijtimoiy adolat va fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi o'rni, fuqarolar tengligi, adolatli qonuniy asoslar, ijtimoiy himoya va shaxsiy erkinlik tamoyillari keltirilgan. Shuningdek, Konstitutsyaning yangi talqinida inson huquqlari va ijtimoiy mas'uliyatni kengaytirishga oid o'zgarishlar, ekologik xavfsizlik, davlat boshqaruvi va demokratik tamoyillarga oid yangiliklar ham yoritilgan. Bu o'zgarishlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada kengaytirishga, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga, shuningdek, davlatning ekologik xavfsizlik va farovon hayotni ta'minlashda mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: *demokratik, adolat poydevori, huquq, burj, ijtimoiy himoya, hokimyat, prinsiplar, din, hujjat.*

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о Конституции Республики Узбекистан и ее основных принципах. Представлена роль конституции в защите социальной справедливости и прав граждан, равенства граждан, справедливых правовых основ, принципов социальной защиты и свободы личности. Также новая интерпретация Конституции охватывает изменения, связанные с расширением прав человека и социальной ответственности, экологической безопасности, государственного управления и демократических принципов. Данные изменения направлены на дальнейшее расширение прав и свобод граждан, усиление социальной защиты, а также повышение ответственности государства в обеспечении экологической безопасности и комфортной жизни.

Ключевые слова: *демократия, основы справедливости, закон, гороскоп, социальная защита, власть, принципы, религия, документ.*

BASIC PRINCIPLES OF THE CONSTITUTION

Abstract: This article provides detailed information about the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its basic principles. The role of the constitution in protecting social justice and the rights of citizens, equality of citizens, fair legal foundations, principles of social protection and individual freedom is presented. Also, the new interpretation of the Constitution covers changes related to the expansion of human rights and social responsibility, environmental safety, public administration and democratic principles. These changes are aimed at further expanding the rights and freedoms of citizens, strengthening social protection, as well as increasing the responsibility of the state in ensuring environmental safety and a comfortable life.

Keywords: *democracy, foundations of justice, law, horoscope, social protection, power, principles, religion, document.*

Kirish. Konstitutsiya – har bir mustaqil davlatning eng muhim huquqiy hujjati bo‘lib, unda davlat tuzilishi, hokimiyat bo‘linishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda davlatning asosiy vazifalari belgilangan. Konstitutsiya – demokratik jamiyatning poydevori, aholining huquqiy himoyasini ta’minlovchi va adolatli ijtimoiy tartibotni kafolatlaydigan asosiy qonundir.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, u mamlakatimizning mustaqilligi va suverenitetini ta’minlovchi asosiy huquqiy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Konstitutsiyada quyidagi muhim tamoyillar o‘z ifodasini topgan:

1. Fuqarolarning huquq va erkinliklari: Konstitutsiya fuqarolarga teng huquq va erkinliklarni ta’minlaydi. O‘zbekiston fuqarolari millati, dini, jinsi va boshqa ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar teng huquqlarga ega.
2. Hokimiyat bo‘linishi prinsipi: O‘zbekistonda davlat hokimiyati uch tarmoqqa – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi, bu esa hokimiyatlar o‘rtasida muvozanat va nazoratni ta’minlaydi.
3. Qonun ustuvorligi: Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan. Barcha qonunlar va qarorlar Konstitutsiyaga zid bo‘imasligi lozim.
4. Inson huquqlari va erkinliklari: Konstitutsiya inson huquqlarining kafolatlanishini ta’minlaydi va har bir fuqaroning erkin hayot kechirishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Konstitutsiya har bir mustaqil davlatning asosiy qonuni sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. U davlat hokimiyati va fuqarolarning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda tenglik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham xalqimizning huquqiy himoyasini, ijtimoiy adolat va tenglikni kafolatlaydigan huquqiy hujjatdir.

Konstitutsiyada quyidagi ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosiy o‘ringa ega:

1. Fuqarolarning tengligi: konstitutsiyaga ko‘ra, barcha fuqarolar millat, til, din, jins, kelib chiqish va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega. Bu tamoyil fuqarolar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlaydi va kamsitishning oldini oladi.

2. Adolatli qonuniy asoslar: Konstitutsiya har bir fuqaroning huquqlarini qonuniy asosda himoya qiladi va ularga adolatli sudlovnii kafolatlaydi. Bu tamoyil, davlat va jamiyatning har bir a’zosiga teng huquqiy imkoniyatlar taqdim etadi.

3. Ijtimoiy himoya va davlat kafolati: Konstitutsiya davlatning ijtimoiy himoya tizimini yaratishga hamda aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo’llab-quvvatlashga majbur ekanligini belgilaydi. Bu, jamiyatdagi har bir kishining hayotiy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan adolatli siyosatni amalga oshirish imkonini beradi.

4. Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik: Har bir fuqaro o‘z erkinliklariga ega bo‘lib, shaxsiy hayoti va daxlsizligi himoya qilinadi. Bu tamoyil fuqarolarga o‘z taqdirini mustaqil belgilash, o‘z hayotini erkin kechirish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar. Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotining poydevori bo‘lib, u mamlakatning barcha sohalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni belgilaydi. Farovon hayotni ta’minlashda Konstitutsiyaning o‘rni katta, chunki u fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatini tartibga solish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham xalqimizning erkin, farovon va adolatli hayot kechirishi uchun huquqiy kafolatdir.

Farovon hayotni ta’minlashda Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari:

1. Fuqarolarning iqtisodiy huquqlari: Konstitutsiyada fuqarolarning mulk huquqi, mehnat qilish va tadbirdorlik bilan shug‘ullanish huquqlari kafolatlangan. Bu esa iqtisodiy farovonlik uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi va aholining daromadlarini oshirishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy himoya va ta’minot: Konstitutsiya fuqarolar uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va pensiya tizimlarini rivojlantirish majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi. Bunday tizimlar aholi farovonligini oshirishda, ayniqsa, yordamga muhtoj qatlamlar uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Qonun ustuvorligi va huquqiy himoya: Konstitutsiya barcha fuqarolar uchun teng huquq va erkinliklarni ta’minlashni, adolatli sud tizimini yo‘lga qo‘yishni belgilaydi. Bu tamoyillar fuqarolarning himoyalanganlik hissini oshiradi va farovonlikka ishonchni mustahkamlaydi.

4. Ekologik xavfsizlik va barqarorlik: Farovon hayotning bir qismi sifatida Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik va tabiatni asrash zarurati ham qayd etilgan. Tabiatni asrash va resurslardan oqilona foydalanish kelajak avlodlar uchun ham barqaror va sog‘lom muhitni ta’minlaydi.

5. Demokratik tamoyillar va so‘z erkinligi: Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, jumladan, fikr bildirish va yig‘ilish erkinligi fuqarolarga o‘z fikrini ifoda etish, davlat boshqaruvida qatnashish imkoniyatini beradi. Bu fuqarolarning davlat va jamiyatda o‘zini erkin his qilishiga hamda ishonchli kelajak qurishga hissa qo‘sadi.

Yangi Konstitutsiya va eski Konstitutsiya o‘rtasidagi asosiy farqlar ko‘proq fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini yanada kengaytirishga, davlat boshqaruvini takomillashtirishga, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishga qaratilgan. Quyida yangi va eski Konstitutsiyalar o‘rtasidagi muhim farqlar keltirilgan:

1. Fuqarolarning huquq va erkinliklari kengaytirilgan. Yangi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari yanada kengroq himoya qilingan. Misol uchun, insonning yashashga bo‘lgan huquqi, mehnat qilish huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi kabi tamoyillar yangilangan va yanada rivojlantirilgan.

Eski Konstitutsiyada huquq va erkinliklar bor edi, lekin yangi Konstitutsiyada ular chuqurlashtirilib, zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko‘rib chiqildi.

2. Ijtimoiy himoya kuchaytirilgan. Yangi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy majburiyatları kengaytirildi va aholining himoyaga muhtoj qatlamlariga, jumladan, kam ta’milanganlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yoshlar uchun qo‘srimcha imtiyozlar belgilandi.

Eski Konstitutsiyada ijtimoiy himoya bor edi, ammo yangi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy mas’uliyati yanada kuchaytirilib, davlat ijtimoiyadolat va himoya kafolatini oshirdi.

3. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish

4. Davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni kuchaytirish

Yangi Konstitutsiyada davlat hokimiyati tizimi demokratik tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqildi, hokimiyatlar o‘rtasidagi muvozanat, mas’uliyat va vakolatlar yanada aniq belgilandi.

Eski Konstitutsiyada ham davlat hokimiyati tizimi belgilangan edi, ammo yangi Konstitutsiyada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi aniqroq ifodalandi va fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirildi.

5. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi o‘zgarishlar.

Yangi Konstitutsiyada ta’lim olish huquqi, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi, bolalar va yoshlarning himoyasi davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida aniq belgilangan.

Eski Konstitutsiyada ham ta’lim va sog‘liqni saqlash huquqlari mavjud edi, lekin yangi Konstitutsiyada bu huquqlar yanada kengaytirilib, aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar taqdim etilishi kafolatlandi.

6. Inson huquqlari va gender tenglikka e’tibor.

Yangi Konstitutsiyada gender tenglik va inson huquqlari himoyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega bo‘lishi, ularning jamiyatda teng ishtirok etishi huquqiy asosda mustahkamlangan.

Eski Konstitutsiyada bu masalalar mavjud edi, ammo yangi Konstitutsiyada gender tengligi tamoyillari yanada rivojlantirilib, huquqiy kafolatlar oshirildi.

Xulosa. Yangi Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi.

Eski Konstitutsiyada ekologik masalalar ham bor edi, ammo yangi Konstitutsiya atrof-muhitni muhofaza qilishni davlatning muhim majburiyati sifatida yanada mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari majmuasi, 1992.
2. Norpo‘latov O., Sharipov M. – Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2003.
3. Jurayev R. – Konstitutsiyaviy huquq asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. Sodiqov A. – Farovonlik va huquqiy davlat. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
5. Solijonov M. Inson huquqlari va Konstitutsiya. –Toshkent: Adolat, 2015.
6. Karimov M. O‘zbekistonda farovon hayot va ijtimoiy rivojlanish. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2014.
7. Karomatov Sh. – O‘zbekistonda davlat boshqaruving konstitutsiyaviy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.

МА’МURIY HUQUQBUZARLIKKA OID ISHLARNI YURITISHDA YARASHUV INSTITUTINING AHAMIYATI

Imomov Samandar Karimqul o’g’li

Xovos tumani, IIB, JXX, HPB profilaktika inspektori

Annotatsiya: O’zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimiga yarashuv institutining kirib kelishi, ushbu institutning ma’muriy huquqbazarlikka oid ishlarni yuritishdagi o’rni va ahamiyati

Kalit so’zlar: Yarashuv instituti, ma’muriy huquqbazarlik, ma’muriy huquqbazarlikka oid ishlar.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini demokratlashtirish hamda erkinlashtirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil 4-oktabr kuni qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksiga qo’shimcha va o’zgartishlar kiritish haqida”gi qonuni bu borada yana bir muhim huquqiy asos bo’ldi. Ushbu qonun bilan O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgargarlik to’g’risidagi milliy qonunchiligidan taraflarning o’zaro yarashganligi munosabati bilan ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ish tugatilishi tartibi, ya’ni “Yarashuv instituti” kirib keldi.

Dastlab Yarashganlik munosabati bilan jazodan ozod qilish amaliyoti 2001-yilda jinoyat kodeksiga 66¹-modda sifatida kiritilgan edi. Bu institut amaliyotda o’zini oqladi va bugungi kunda ham samarali foydalanib kelinmoqda. Yarashganlik instituti joriy qilinishi tufayli juda ko’p fuqarolar jinoiy javobgarlikdan ozod qilindi va ozod qilinmoqda. Shu bilan birga bilib-bilmay jinoyat sodir qilgan fuqarolar qonunchilikdagi bu imkoniyatdan oqilona foydalanib, qilmishidan pushaymon bo’lib, o’zaro yarashib, to’g’ri xulosa chiqarmoqda.

Shu o’rinda aytish kerakki, er-xotin, qarindosh-urug‘, qo’ni-qo’shni, tanishbilishlar o’rtasida o’zaro kelishmovchilik ro’y berishi hayotda uchrab turadi. Huquqni qo’llash amaliyotida, shu vaqtgacha, fuqarolarning mol-mulkiga ziyon yetkazish bilan bog’liq bo’lgan yoxud birinchi marta ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs tomonidan o’z vaqtida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar qoplanganida, sodir etgan qilmishidan chin ko’ngildan pushaymon bo’lganida hamda jabrlanuvchi bilan yarashgan taqdirda ham unga nisbatan “Yarashuv instituti”ni qo’llagan holda ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmi mavjud bo’lmagan.

Tabiiyki, bu yaqin insonlar o‘rtasida adovat davom etishiga, ularning orasiga sovuqchilik tushishiga sabab bo‘lib kelgan.¹

Misol uchun, Sirdaryo viloyati Xovos tumanida yashovchi ikki qo‘shni o‘rtasida kelishmovchilik tufayli biri ikkinchisiga yengil tan jarohati yetkazadi. Bu huquqbazarlik yuzasidan profilaktika inspektori ma’muriy ish hujjatlarini to‘plib, tan jarohati yetkazgan qo‘shniga qonuniy chora ko‘rish uchun tuman sudiga yuboradi. Biroq, biroz vaqt o‘tib, ikkinchi taraf o‘zaro yarashgani, jabr yetkazgan shaxsga nisbatan hech qanday da’vosi yo‘qligi, qo‘shnilar o‘rtasida do‘stona muhitni asrab qolish uchun sud majlisida ishtirok etmasligini bildirib iltimosnomasi yozgan. Shunga qaramay, profilaktika inspektori ularni sud majlisiga olib borishga majbur bo‘lgan. Bu holatga esa qo‘shnilar e’tiroz bildirgan. Bu fuqarolarda ichki ishlar organlariga nisbatan ishonchszilik hissini uyg‘otishga ham sabab bo‘layotgani bor haqiqat edi.

Shu sababli, ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi qonunchiligidan liberallashtirish hamda ushbu qonunimizda insonparvarlik tamoyillarini keng qo’llash maqsadida “Yarashuv instituti” deb nomlangan institut MJtKda alohida norma sifatida mustahkamlandi. Yarashuv institut alohida norma sifatida miliy qonunchiligidan mustahkamlanishi orqali, ma’muriy huquqbazarlik to‘g’risidagi ishlarni yuritishda tomonlarning kelgusida o‘zaro bir-biriga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishini to’xtatishga, shuningdek, 1 yil mobaynida 2 marotaba sodir etilgan taqdirda jinoyat deb topiladigan ma’muriy huquqbazarliklarning oldini olish va bu orqali Respublikamizda jinoyatchilikni keskin kamaytirishga hamda fuqarolarning sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchni ya’nada ortishiga va milliy qonunchiligidan adolatlilik hamda insonparvarlik tamoyillarini keng qo’llash imkonini berdi.

Yarashuv instituti-jabrlanuvchining yarashuv to‘g’risidagi arizasiga asosan, ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni ma’muriy javobgarlikdan ozod etishning bir ko’rinishidir. Sud ma’muriy huquqbazarlik to‘g’risidagi isharni ko’rib chiqishda yarashuv institutini qo’llash jarayonida quyidagi talablar mavjud bo‘lganidagina tomonlarning yarashganlik munosabati bilan ma’muriy huquqbazarliklar to‘g’risidagi ishlarni tugatishi mumkin:

- yarashuv tomonlarning o‘zaro ixtiyoriy roziligiga asoslanganligi;
- huquqbazar shaxs o‘z aybiga ixtiyoriy iqrorligi;
- yetkazilgan zarar to’liq bartaraf etilganligi;
- sodir etilgan huquqbazarlik O’zb Res MJtKning 21²-moddasida ko’rsatilgan ma’muriy huquqbazarlik toifasiga kirishi;

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs yuqorida keltirilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, ma’muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 25.10.2002 yildagi 27-soni

Ma'muriy huquqbazarlik -huquqbazarlikning bir turi. O'zbekiston Respublikasi MJtKga ko'ra, qonun hujjalari binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy, aybli (qasddan yoki ehtiyojsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi

Ma'muriy huquqbazarlikka oid ishlarni yuritish- sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlikni ushbu ishni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan organ(mansabdor shaxs) tomonidan ishni o'z vaqtida, har tomonloma, to'la va ob'ektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonunchilikka muvofiq hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlashdan, shuningdek, ma'muriy huquqbazarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huquqbazarliklarning oldini olishdan iborat alohida prosessual bosqich tushuniladi.

Huquqbazarliklar ichida ma'muriy huquqbazarlik turi ijtimoiy hayotda juda ko'p kuzatiladigan huquqbazarliklar turidan bittasi hisoblanadi. Ushbu huquqbazarlik boshqa huquqbazarliklardan, xususan, jinoiy huquqbazarlikdan o'zining, ijtimoiy xavflilik darajasidan, tajovuz qilinayotgan obekt xususiyatidan, sudlanganlik holatidan va boshqa bir qator xususiyatiga ko'ra farq qiladi. Ma'muriy huquqbazarliklar kundalik hayotimizning turli jabhalarda ko'plab uchraydi. Xususan, oila-turmush doirasidagi, sog'liqni saqlash doirasidagi, jamoat tartibini ta'minlash borasidagi va boshqa bir qator huquqbazarliklar shular jumlasidandir. Albatta, MJtKda ko'rsatib o'tilgan huquqbazarliklardan bittasi sodir etilgan taqdirda, huquqbazar shaxsni har qanday holatda ham ma'muriy javobgarlikka tortishga asoslar yetarli bo'ladi. Lekin MJtKda shunday huquqbazarliklar borki, ushbu huquqbazarliklar sodir etilgan taqdirda, ushbu huquqbazarlikdan jabrlangan shaxsga, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan yetkazilgan zarar qoplanganligi, jabrlanuvchi shaxs huquqbazar shaxs bilan o'zaro kelishib olganligi va boshqa asoslarga ko'ra jabrlangan shaxsning ikkinchi tomonga nisbatan hech qanday da'vo-e'tirozi yo'qligi sababli ushbu ish bo'yicha huquqbazar shaxsni javobgarlikka tortish, albatta, insonparvarlik va adolatlilik prinsiplariga zid kelishi va ikki tomonning kelgusidagi munosabatlariga salbiy ta'sir etish holatlari kuzatilishi mumkin. Shu sababli qonunimizdagi ushbu bo'shliqni bartaraf etish maqsadida, 2021-yil 4-oktabr kuni «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar kiritish haqida»gi qonuni muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolanib ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish jarayoniga yangi institut "Yarashuv instituti" kiritildi. Ushbu qonunga asosan, MJtKning quyidagi bir qator moddalar bo'yicha yarashuv instituti qo'llanilishi ko'rsatib o'tildi. Xususan, Ushbu Kodeksning 40-moddasida (tuhmat), 41-moddasida (haqorat qilish), 45-moddasida (fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish), 46-moddasida (fuqaroga

ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish), 46¹-moddasida (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), 52-moddasida (yengil tan jarohati yetkazish), 61-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (oz miqdorda talon-taroj qilish), 61²-moddasida (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), 62-moddasida (topib olingan mol-mulkni yashirish), 104-moddasida (ekinzorlarni payhon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish), 121-moddasida (transport vositalarining ichki jihozlariga shikast yetkazish), 133-moddasida (transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi), 134-moddasida (haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi), 183-moddasida (mayda bezorilik), 200-moddasida (o'zboshimchalik) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi belgilab berildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning 8 oyida 11 ming 477 ma'muriy huquqbazarlik aynan oilada, ya'ni er-xotin, qaynona-kelinlar o'rtasida sodir bo'lib, ularning barchasi, yarashtiruv instituti mavjud bo'limgani bois, hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy bayonnomalar tuzilib sudlarga yuborilgan. Endilikda qonunchiligidizda "Yarashuv instituti"ning joriy etilishi yuqoridaagi kabi holatlarning oldini oladi, ortiqcha ovoragarchilikka chek qo'yadi. Qolaversa, er-xotin, yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchilik o'zaro adovatga aylanib ketishining oldi olinadi, oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbazarliklar kamayishiga erishiladi.

Bugungi kunda sud organlari tomonidan eng ko'p ko'rila'digan ishlar ma'muriy huquqbazarlikka oid ishlar hisoblanadi. Ushbu ishlarni ko'rib chiqishda avvalo adolat va qonun ustuvorligiga tayaniladi. Muayyan ma'muriy huquqbazarlikka oid ishlarni ko'rib chiqayotgan vaqtida odil sudlovni amalga oshiruvchi subekt ya'ni sudya ishning har tomonlama va xolisona ko'rib chiqilishini, ishda ishtirok etayotgan taraflarning o'zaro fikr va mulohazalarini tinglagan holda, shuningdek, ish yuzasidan to'plangan hujjatlar va dallilarga asosan ish yakuni yuzasidan qaror qabul qiladi. Agarda ish taraflarning yarashganligi munosabati bilan sudga ko'rib chiqish uchun yuborilgan taqdirda, sudya taraflarning so'zlarini tinglayotgan vaqtida jabrlanuvchi tarafning ikkinchi tomonga nisbatan hech qanday da've-e'tirozi yo'qligini, yarashuv ikki tomonning ixtiyoriy roziligidagi asoslanganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar to'liq qoplanganligi holatlariga alohid e'tibor qaratishi lozim. Yarashuv to'g'risidagi ariza prosessning har qanday bosqichida, lekin sud ish bo'yicha alohida qaror chiqarilguniga qadar berlishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy huquqbazarlikka oid ishni ko'rib chiqayotgan organ O'zb Res MJtKning 271-moddasi 1-qismiga 10¹-bandiga asosan, ish yuritishni tugatish hamda m'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish masalasini hal etishi lozim.

Xulosa va takliflar:

Bugungi kunda Respublikamizda Sud organlari tomonidan eng ko'p ko'rildigan ishlar ma'muriy huquqbazarlikga oid ishlar hisoblanib, ushbu ishlar ko'p holatlarda qarindosh-urug', tanish-bilish, do'st-birodar, er-xotinlarning bir-biriga nisbatan ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etishi, ushbu huquqbazarlikni sodir etayotgan vaqtida ular o'zaro bir-biriga nisbatan jahl ustida shunday huquqbazarliklarni sodir etib kelayotganligi biroq oradan biroz vaqt o'tganidan so'ng, taraflar yana avvalgidek, munosabatlarini davom ettirayotganligi, lekin ushbu huquqbazarlik sodir etilgan vaqtida kelib tushgan arizaga asosan hujjatlar to'planib jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga olib chiqishga tayyor holatga keltirilgan vaqtida tomonlar o'zaro yarashib olishganligini, ariza bilan murojaat qilgan fuqaro ish yuzasidan hujjatlarni to'plab sudga olib chiqayotgan mahalla profilaktika inspektoriga arizasini qaytarib olishini, ikkinchi taraf esa tanishi ekanligini, agar mazkur to'plangan hujjatlarni sudga olib chiqgan taqdirda ularning o'zaro munosabatlari buzilib ketishi va bir-biriga nisbatan adovat uyg'onishi mumkinligini aytib profilaktika inspektoridan bir-birini o'zaro yarashtirishini iltimos qilish holatlari ko'p bora uchrab turganligini bunday vaziyatda hujjatlarni sudga olib chiqayotgan profilaktika inspektori uchun qonuniy, ikkala tomonning ham manfaatiga xizmat qiluvchi qaror qabul qilish zarurati vujudga keladi. Ushbu holatda profilaktika inspektori uchun eng to'g'ri va samarali qaror bu-

YARASHUV INSTITUTI hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu isntitut bugungi kunda eng ko'p qo'llanilib kelinayotganligi hamda ma'muriy huquqbazarlik to'grisidagi ishlarni eng samarali usulda tugatish imkonini berayotganligi ushbu institutning bugungi kundagi dolzarbliги uning ta'sir doirasiga tushuvchi MJtK da belglab berilgan moddalar doirasini kengaytirish zarurati ushbu institut bilan bog'liq qonunchilik sohasini takomillashtirish, isloh qilish kerakligini anglatadi. Shulardan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

TAKLIF:

-O'zbekiston Respublikasi MJtKning 21²-moddasida ko'rsatib o'tilgan yarashuv instituti ta'sir doirasiga tushadigan moddalar sonini oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi MJtKning 59²-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan huquqbazarlikni ham ushbu institut ta'sir doirasiga kiritish: Sababi ushbu turdag'i huquqbazarliklarning aksariyati er-xotin o'rtasida sodir etilayotganligi sababli, ushbu ish sud tomonidan ko'rilib sudya tomonidan huquqbazar shaxsga nisbatan ushbu modda sanksiyasida ko'rsatilgan jarima yoki ma'muriy qamoq jazolaridan birining qo'llanilishi

huquqbuzar shaxsda jabrlanuvchiga nisbatan nafratning uyg'onishi va bu orqali oilaning ajrashib ketishiga olib kelishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarayotganligi;

-Yarashuv institutining dolzarbligini hamda bu institut borasidagi bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, uning mazmun-mohiyatini to'la anglab yetishlari uchun HMQO ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari hamda yuridik institut, (litsey,kollejlar)da tahsil olayotgan talabalar uchun qo'shimcha o'quv-seminar mashg'ulotlarini tashkillashtirish;

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi MJtK;
- O'zbekiston Respublikasi JK;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud plenumi qarorlari;

THE LINGUOCULTURAL SIGNIFICANCE OF COLOR DESIGNATION IN THE MODERN ENGLISH LANGUAGE

Jumanova Gulhayo Adham qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MD student of Translation theory and Comparative linguistics

E-mail: gulhayo579@gmail.com

Scientific advisor: Ph.D., associate Professor Agzamova D.B

Abstract

Color plays a crucial role in visual information, as it is often the first aspect people notice, such as the color of someone's clothing, skin, or hair. Although there are limited linguistic studies on this topic, insights can be gained through introspection by analyzing how color terms function in various contexts. Numerous scientific studies focus on color, and this article aims to explore the characteristics of the English linguistic worldview through color-related phraseological units. The author concludes that examining these units helps to better understand the distinct national traits of the English and the origins and nuances of their worldview.

Keywords: cultural linguistics, adjectives, vocabulary, color designation, phraseological unit, black, white, red, color definitions

In the world of linguistics, at present, in the process of globalization and intercultural communication of people, the question arises about all aspects of language, including the analysis of socio - and linguocultural meanings reflected in the language. Color is a category that attracts the attention of specialists from all over the world, whose scientific interests lie in completely different fields of knowledge: physicists, biologists, doctors, psychologists, artists, designers, art historians, philosophers, literary critics, linguists and many others. Structural and semantic differences in the field of color names are associated with differences in the world pictures of representatives of different cultures, with established historical and cultural, religious, climatic and other features.

Color names are considered in such works of foreign, Russian and domestic researchers as Neroznak V. P., Gak V. G., A. P. Vasilevich, Yu. V. Normanskaya, V. K. Kharchenko, N. V. Serov, Mukhamadiev E. M., Nabiev M. N. Color is the most important part of all visual information. It is the color of the clothes of the person you meet, the color of his face, hair, etc., that is remembered first of all. For example, the statement: "I don't remember what she was wearing, but she was wearing red, and this

red burned my soul and kept me awake at night." One of the issues related to color naming is the question of how to combine words that denote color into groups. A. P. Vasilevich illustrates a fairly large sample size and the use of the possibilities of the color naming language in Russian speech and for the convenience of analysis uses the following classification: a) simple adjectives (red, turquoise); b) shades (bright red, poisonous green); c) two-part words (red-blue, emerald-green); d) phrases (the colors of the sea wave, the colors of autumn leaves). At the same time, the author notes that shades, two-part words and phrases in dictionaries are almost completely absent.

Modern science presents the problem of reflection of the objective world by a person and his interaction with him in the form of a ratio of two worlds: a conceptual picture of the world and a linguistic picture of the world. The conceptual picture of the world includes a national cultural picture of the world, which is specific and different for different peoples. In the national picture of the world, a color picture of the world can be distinguished, which is also included in both the conceptual and the linguistic picture of the world, therefore the lingua-color picture of the world is called. The isolated nature of individual scientific works does not allow presenting an integral linguistic-color picture of the world of a separate ethnic group, a number of aspects remain outside the field of view of researchers. The purpose of our study is to highlight and describe the features of the English linguacolor picture of the world using the example of colorative phraseological units. A phraseological unit is a combination of at least two verbal signs existing in the lexical system of a language, characterized by separate design, nominative, stability, idiomatic and connotative. The system of color designation in modern English is characterized by significant ramification and complexity, especially in that part of it, which consists of the names of color shades.

As the analysis of the factual material shows, the following colors can be attributed to the coloratives of the English lingua-color picture of the world: red, orange, yellow, green, blue, indigo, violet / purple, white, black, brown, pink, gray. In the second half of the 20th century, the colors "cyan, magenta, terracotta, khaki" penetrate into the English language, which is associated with the development of computer technologies, but which were not found in the composition of English phraseological units.

The linguocultural significance for the English ethnos, for example, of blue is expressed in the categories: national identity, religion, clothing, etc. Blue is the color of royalty, monarchy, noble birth, the color of the British Conservative Party and the dominant color of the British flag. About disinterested people who are not capable of any meanness or dirty deeds, the British say: Blue eyed boy / girl, meaning the character of an angel, who, in the minds of the British, has blue eyes. Democratic

views and a broad outlook in English are called blue sky thinking. Blue in England symbolizes devotion in love, fidelity, the bride at the wedding is supposed to wear something old, something new, something borrowed, something blue.

Many phraseological units of the English people have their roots in the distant past, when the British Isles were inhabited by the Angles, Saxons, Britons, and others. Folklore reflected the influence of different cultures on the English language. It was from time immemorial that the idea of black as negative and gloomy came from (black-letter day — a tragic day, black beast — an object of hatred, black ingratitude — black ingratitude, a black look — a look full of discontent, to be in a black mood — be in a bad mood, etc.).

Conclusion

Considering all of the above, we can say that color is one of the categories of cognition of the world and means of understanding it. Color carries a deeper meaning than it seems at first glance, therefore, the study of ethno-coloristic, which is reflected in the phraseological composition of the language, makes it possible to more clearly understand the peculiarities of the national characters of various peoples, the origins and features of mentalities in the perception of the picture of the world in everything the variety of its colors. The perception of color is determined by the social, ethno cultural affiliation and individual characteristics of each person.

References:

1. Василевич А.П. Этимология цветонаименований как зеркало национального культурного сознания. — М.: Ком Книга, 2007. — 320 с.
2. Гущина Л.В. Специфика идиоматического цветообозначения в английской лингвокультуре // Известия Южного федерального университета. Филологические науки. — 2013. — № 4. — С. 67–75.
3. Москович В.А. Система цветообозначений в современном английском языке // Вопросы языкознания. — 1960. — № 6. — С. 83–87.
4. Телия В.Н. Типы языковых значений: Связанное значение слова в языке. — М.: Наука, 1981. — 269 с.
5. Василевич А.П. Цветонаименования как характеристика языка писателя (К методике исследования) // Лингвистика текста и стилистика / Ред. П. Аристэ, Х. Лийн. Тартуский государственный университет, 1981. -С. 135-143.
6. <https://elibrary.ru/item.asp?id=22886506>

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИНИ ТА'ЛИМИY FAOLIYATNI TUBDAN RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY USTUVOR VAZIFALARI

Aliyeva Lobar Eshkulovna

Surxondaryo viloyat Jarqo 'rg 'on tuman

19-son DMTT direktori

Annatatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantrishning ustvor vazifalari va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini samarali tashkil qilish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье упомянуты приоритетные задачи развития системы дошкольного образования и эффективной организации сотрудничества с родителями..

Abstract: this article mentions the priority tasks of the development of the preschool education system and the effective organization of cooperation with parents.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-onsa, hamkorlik, ta'lim-tarbiya, pedagog, bolalar, odob-axloq.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, родители, сотрудничество, воспитание, педагог, дети, манеры.

Key words: preschool education organization, parents, cooperation, education, pedagogue, children, manners.

Farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyaga bog'liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda quyidagi keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan va biz bularning ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish

➤ Bolalarning yosh va individual xususiyatlariiga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.

➤ Insonparvarlik va milliy qadriyatlarni o'z ichiga olgan ta'lim mazmunini kengaytirish.

➤ STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvlarini tatbiq etish orqali bolalarning kreativ va ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'limning vazifalari:

- bolalarni xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilishini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalar tafakkurini rivojlantirish o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash.

Hamkorlik pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o'rganayotganiga tayanib, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bolalarni maktabga tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim" to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, otaonalar mustaqil ta'lim berish orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlар yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning mакtab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydaligidayoq mакtab ta'limiga tayyorlash, uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiyl, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni mакtabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallahga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

Ota -naning jihatlari esa; bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish. Bolaning aql-zakovatli bo'lishi-ga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib tarbiya-lanishiga asos yaratish.

Ota -Onaning jihatlari esa;

- ✚ Bolalarning oilaviy an'analar, marosimlar, urf – odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash.
- ✚ Bolalarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda har xil illatlarga nafrat ruhida tayyorlash.
- ✚ Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish. Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish.
- ✚ Bolalarda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr–shafqat fazilat-larini, o'zidan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish.



✚ Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar. Oilada farzandlarning qiziqish-larini o'yinchoqlar yordamida

aniqlash va aniqlangan qiziqish-ni yanada kuchaytirishga ahamiyat berishdan iborat. Odam savdosiga tushib qolgan odamlarning oilalari ham mahalla oldida uyalib, oila tanazuliga uchrashligini farzand-lar ongiga singdirish. Oilada ota-onaning bola tarbiya-sida "Ijobiy o'rnak" ko'rsatishi. Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar. Oilada farzandlarning qiziqish-larini o'yinchoqlar yordamida aniqlash va aniqlangan qiziqish-ni yanada kuchaytirishga ahamiyat berishdan iborat. MTT va ota-onsa bilan hamkorlik natijasida esa farzndlarda ongli hayot kechirish elementlari shakllanadi. Bolalarda ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishga ish-tiyoq oshadi. Oila va bola ma'naviyatining sog'lom bo'l-ishiga e'tibor berila-di. Bolalardagi tozalik, ozodalik, tartib – intizomlilik kabi insoniy sifatlar shakllanishiga asos yaratiladi. Bolalardagi ma'naviy – axloqiy tarbiya rivojlanishi e'ti-borga olinadi. Bolalar ongida ezgulik insonlarni yaxshilikka yetaklashi haqidagi ma'lumotlar paydo bo'lishi e'tiborda bo'ladi. Turli salbiy oqibat-lar haqida bolalar ongida tasavvur paydo bo'ladi. "Ibrat – namuna – hayot dorilfununi" turkumi-dagi ma'lumotlardan foydalanish kerak. Bola tarbiyasidagi rag'batlantirish va jazolash me'yorlariga amal qilish lozim bo'ladi. Qiziqishga oid faol-iyatga moyillik kuchli bo'ladi.

Demak, farzand tarbiyasini ota – onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota – onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh – urug’lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota – ona obro’si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo’ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko’zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo’shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota – onalar ijobjiy o’rnak bo’ladigan kishilardir, ya’ni obro’li ota – onalardir. Bunday odamlar o’z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, MTT ham e’tibor beradigan aqlii odamlar, namunali oilalar a’zolari bo’ladi. Aksariyat xollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e’tibor beriladi. Ota-onas, xatto ayrim o‘qituvchilar xam bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo’ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go‘yo ma’lumotlar ummonida so‘zib yurgandek bo‘lmokdalar.

Xulosa qilib, maktabdagagi o‘qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan tasavvurlar, nutq va elementar o‘quv faoliyati umumiyligi darajasining birligi, maktabda muvaffaqiyatli o‘qishning zaruriy sharti hisoblanadi, bu esa biz pedagoglar hamda ota-onalarga katta ko‘mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
2. O.U. Hasanboeva va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o‘quv qo’llanma (3-nashr) T.:”Ilm ziyo”, 2012y.
3. <http://www.edu.uz>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirligi sayti.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Xadjayeva Ma'mura Tursunovna

Samarqand viloyati Urgut tumani 5-son DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarning aqliy va jismoniy-fizologik rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация об особенностях психического и физического-физиологического развития детей дошкольного возраста.

Abstract.: This article provides information on the characteristics of mental and physical-physiological development of preschool children.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanish, bolalar, ta'limiy jarayon, fiziologik xususiyatlari, jismoniy faoliyat, aqliy faoliyat.

Ключевые слова: физическое развитие, умственное развитие, дети, учебный процесс, физиологические особенности, двигательная активность, умственная деятельность.

Key words: physical development, mental development, children, educational process, physiological characteristics, physical activity, mental activity.

Maktabgacha yosh bolalar rivojlanishining o'ziga xos davri bo'lib, bu davrda ularning jismoniy va aqliy o'sishi faol sur'atlarda amalga oshadi. Ushbu davr bolaning kelgusidagi rivojlanishi uchun asos bo'lib, uning individual qobiliyatları va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari hamda ota-onalar va tarbiyachilarning roli yoritiladi.

Bu to'g'ri holatga hissa qo'shamo, ammo siz o'tirgan mashqlar, ovqatlanish paytida va uyqu paytida tananing holatini doimiy ravishda kuzatib borishingiz kerak, chunki umurtqa pog'onasi, bosh, elkama-kamar va tos suyaklari holatining konfiguratsiyasi nihoyat. faqat 14 yoshda shakllangan. Agar ota-onalar erta yoshdan boshlab jismoniy rivojlanishga ko'proq e'tibor berishsa, u holda tananing yurak-qon tomir va asab tizimlarining ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Tez-tez yurish, ochiq o'yinlar va jismoniy tarbiya paytida maktabgacha yoshdagagi bolalarning nafas olish funktsiyasi kuchayadi.

Bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi: Bolalarning faolligi va harakatchanligi nafaqat atrofdagi dunyon bilishga, balki aqliy rivojlanishiga ham hissa qo'shamo. Axir, har qanday tadqiqot harakat bilan bog'liq. Tug'ilgandan boshlab, chaqaloq narsalarni tekshiradi, qo'llari bilan tegizadi, ularni barmoqlari bilan

his qiladi, og‘ziga o‘yinchoqlar oladi. Ko‘zlarning, tilning harakatlari, kosmosdagi narsalarning harakati - bularning barchasi bolaning atrofidagi dunyo haqidagi birinchi g‘oyalarini shakllantiradi. Bolaning harakatlari haqidagi ma'lumotlar nerv tolalari bo‘ylab miyaga boradi va u erda qayta ishlanadi. Bolaning harakatlari qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Bola ob'ektlar harakatining ketma-ketligi va tezligini idrok etadi, eslab qoladi va tanish operatsiyalarni takrorlashga harakat qiladi.

Jismoniy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bolalarning jismoniy rivojlanishi organizmning umumiyligi shakllanishi bilan bog‘liq. Bu jarayon quyidagi o‘ziga xosliklar bilan ajralib turadi:

1. Tana tuzilishi va harakatlarining takomillashuvi

- Bolaning suyak-mushak tizimi tez shakllanadi. Ular yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash kabi murakkab harakatlarni bajara boshlaydilar.
- Bolaning mayda motorikasi rivojlanadi: chizish, rasm solish, qurilish o‘yinchoqlari bilan o‘ynash qobiliyatları yaxshilanadi.

2. Jismoniy faollikning ortishi

- Bolalar ko‘p harakat qilishni yaxshi ko‘radilar. Bu ularning jismoniy sog‘lomligini ta’minlaydi va mushaklarning rivojlanishiga yordam beradi.
- Ushbu yoshda bolalarning energiyasi yuqori bo‘lib, ular kuniga bir necha soat faol o‘yinlarda qatnashishni talab qiladilar.

3. Immunitet tizimining shakllanishi

- Bu davrda bolalar organizmi atrof-muhit ta’sirlariga moslashadi. Ularning immunitet tizimi mustahkamlanadi, ammo virus va bakteriyalarga nisbatan sezgirlik yuqori bo‘lib qoladi.

Jismoniy faoliyat: Bolalar bog‘chasida har kuni ertalabki mashqlarni, uyqudan keyin gimnastikani amalga oshiradilar. Jismoniy tarbiya darslari haftada ikki marta o‘tkaziladi. Har kuni bolalar turli xil ochiq o‘yinlar va estafeta poygalarini o‘ynashadi. Bundan tashqari, bolaning jismoniy rivojlanishi piyodalar o‘tish joylari, ekskursiyalar, jismoniy tarbiya o‘yin-kulgilari paytida amalga oshiriladi. Harakatchanligi past bo‘lgan har bir darsning o‘rtasida ular jismoniy tarbiya daqiqalarini o‘tkazishadi. Bu sizning orqa mushaklaringizdan kuchlanishni bo‘shatadigan kichik isinishdir. Mashqlar bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda tanlanadi, kompleks asta-sekin kengayadi, takrorlash soni ortadi. Maqolaning matnidan ko‘rinib turibdiki, bolaning erta jismoniy rivojlanishi matabda keyingi ta’lim uchun zarur bo‘lgan harakat

qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi va tanani yangi sharoitlarga moslashtiradi. Jismoniy rivojlanishga va uyda etarlicha e'tibor bering!

Bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatları, uning maqsad va orzulari - bularning barchasi bolalikdan boshlanadi. Agar biz boladan muvaffaqiyatli va o‘zini o‘zi ta'minlaydigan inson yetishib chiqishini istasak, unga kuchli va muvaffaqiyatli boshlash kerak. Bolaning aqliy rivojlanishi, bolaning sog‘ligi ovqatlanish va turmush tarziga bog‘liq bo‘lganidek, bizning intelektual rivojlanish darajasi ham bolalikdagi qanday o‘rganishimizga bog‘liq. Inson miyasi hayot davomida rivojlanadi. Bachadonda shakllanishni boshlab, bola tug‘ilgandan keyin ham o‘sishda va rivojlanishda davom etadi. Kichkina odamning miyasida tug‘ilgandan keyin o‘zgarishlar yuz beradi, bu uning keyingi rivojlanishiga ta’sir qiladi. Miyaning o‘sishi bilan uning hujayralari o‘rtasida aqliy rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan aloqalar paydo bo‘ladi.



Bolalarning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarning katta miqdoridir. Ko‘pgina vazifalarni hal etishda qo‘llaniladigan keng ko‘lamdagagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar xilma-xil faoliyatlar orqali o‘z aqliy faoliyatlarini o‘stirib boradilar. Masalan, o‘yin orqali, xorijiy tillarni o‘rganish orqali, jamoat tadbirlarida qatnashish orqali, turli xil mashg‘ulotlar va to‘garaklar orqali va hokazolar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak. Ayni maktabgacha yoshdagagi bolalar qiziquvchan va intiluvchan bo‘ladi. Ularning aqliy faoliyatini yanada boyitish maqsadida xorijiy tillarni bosqichmabosqich o‘rgatib borish juda yaxshi natija beradi. Ularda til ko‘nikmalarini shakllantirish aqliy salohiyatini ham boyishiga olib keladi.

Tarbiyachilar va ota-onalarning roli

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishida katta yoshdagilarning ta’siri muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar quyidagilarni hisobga olishlari lozim:

- Bolalarning qiziqishlariga mos o‘yinlarni tashkil qilish.
- Ularning savollariga javob berish orqali bilimlarini kengaytirish.
- Sog‘lom ovqatlanish va muntazam jismoniy mashg‘ulotlarni tashkil etish.
- Ijodiy faoliyatga sharoit yaratish va ularga rag‘bat berish.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda aqliy rivojlanishning samarali kechishi uchun to‘g‘ri usul va uslublardan foydalanish lozim. Mobil vositalardan juda ko‘p va nazoratsiz foydalanish ularda aqliy salohiyatni sezilarli darajada susaytiradi. Buning o‘rniga ota-onalar ular uchun foydali bo‘lgan kitoblardan foydalanishi yoki xorijiy tilda oid bo‘lgan ko‘rsatuv va multfilmlarni tomosha qilishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bundan tashqari MTT larning o‘zida mashg‘ulot jarayonida yoki to‘garaklar tashkil qilish orqali ham bolalarga ingliz tilini o‘rgatishimiz mumkin.

Xulosa shuki: Maktabgacha yosh bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi bu davrda atrof-muhitdan olingan bilimlar va tajribalar bilan chambarchas bog‘liq. Bolalarning bu davrdagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu sababli, ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning jismoniy sog‘lig‘ini va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mas’uliyatni his qilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-son qarori.
2. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyanuvchilari va boshlang`ich makkab o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda o‘yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., T.2016.
3. A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66
4. K.X Allaberdieva.Maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari // Innovatsii v pedagogike i psixologii, 2020. SI-2№ 3

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ RAQAMLASHTIRISH VA UNING IMKONIYATLARI

Mansurova Mastura Karimqulovna

Jizzax viloyati Zafarobod tumani 4-sonli DMTT direktori

Annatsiya: ushbu maqolada ta'lif sohani zamonaviy yondashuvlar asosida raqamlashtirish va ish unmdorligini oshirish haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Аннотация: в данной статье представлена краткая информация о цифровизации сферы образования на основе современных подходов и повышения производительности труда.

Abstract: this article provides brief information about digitalization of the education sector based on modern approaches and increasing work productivity.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lif sohasi, yondashuvlar, boshqaruv, ish unmdorligi, raqamli texnologiya, takommillashtirish, zamonaviy ta'lif.

Ключевые слова: цифровизация, образование, подходы, управление, производительность, цифровые технологии, совершенствование, современное образование.

Key words: digitization, education, approaches, management, productivity, digital technology, improvement, modern education.

Maktabgacha ta'lif tizimini raqamlashtirish – bu ta'lif jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan jarayon bo'lib, uning imkoniyatlari maktabgacha ta'lif samaradorligini oshirish, ma'muriy va ta'lif jarayonlarini optimallashtirish, hamda ta'lif sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Quyida maktabgacha ta'lif tizimini raqamlashtirishning asosiy yo'naliishlari va imkoniyatlari ko'rsatilgan:

Ta'lif dasturlarini raqamli formatga o'tkazish

Bolalar uchun raqamli resurslar (video darsliklar, interfaol o'yinlar, audio materiallar) yaratish orqali o'quv jarayonlarini qiziqarli va samarali qilish mumkin.

• Imkoniyatlari:

- Bolalar bilimlarini rivojlantiruvchi mobil ilovalar va interfaol dasturlarni joriy etish.
- Raqamli o'yinlar va qiziqarli animatsiyalar yordamida bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish.
- Raqamli platformalar orqali o'quv dasturlarini moslashuvchan qilish va har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirish.

“Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda “Bolalar bog‘chasi” dasturidan foydalanish boshqaruvni avtomatlashtirish, elektron tizimga o‘tkazish hamda qog‘ozbozlikni kamaytirish, statistik ma’lumotlarni haqqoniyligini ta’minalash maqsadida joriy etilgan. Zamonaviy ta’lim tizmi bugungi kunda o‘zgarayotgan va rivojlanayotgan bir pallada mazkur tizimda an’anaviy o‘qitish usullari o‘rniga texnologiyalardan keng foydalilanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining my.mdomoi.uz elektron manzilda yotuvchi platformasi tarkibidagi partfoliosidan foydalanib kilishmoqda. Ilm-fanni jadal rivojlantirish jarayonida ko‘plab korporatsiyalar yangi texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarishning barcha darajalarida ishlashga tayyor bo‘lgan xodimlarni talab qiladi va maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan xodimlarga bo‘lgan ehtiyoj ortda qolmoqda. Albatta, bu muammolarni hal qilish uchun ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish zarur. Hozirgi kunda bbit.uz “Bollalar bog‘chasi tizimi” dasturi orqali barcha tarbiyalanuvchilar bilan ishlash qulaylik yaratib kelmoqda bu esa o‘z navbatida ishdagi samaradorlikni oshirib boradi. Ta’lim texnologiyalari ilovalari davomatni kuzatish va ishlash monitoringi kabi kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish yoki qisman avtomatlashtirish orqali ko‘p vaqt va energiyani tejash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar talabalarga texnologiyadan mas’uliyatli va strategik foydalanishni o’rgatadi va bu ularga qaror qabul qilishda va o‘z-o‘zini intizomni rivojlantirishda yordam beradi.



“Bolalar bog‘chasi” – это информационная система управления образованием, созданная специалистами Министерства дошкольного образования. Внедрение платформы осуществляется с 1 апреля 2018 года по настоящее время.

Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarga erishishda salohiyatli rahbar kadrlar tayyorlash asalasi birini o‘rnida turadi. Bugungi kunda boshqaruvda yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish va bir vaqtning o‘zida xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarni o‘rgati sh boshqaruvning ta’lim tizimi oldiga qo‘ygan zamon talabidir.

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun



raqamlashtirish orqali yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar pandemiya kabi cheklovlardan davrida masofaviy ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

- **Imkoniyatlari:**

- Bolalar uchun masofaviy mashg'ulotlar, onlayn kurslar va vebinarlarni tashkil etish.
- Tarbiyachilar uchun onlayn malaka oshirish kurslarini o'tkazish.
- Raqamli kutubxonalar va materiallarga masofadan kirish imkonini yaratish.

Ta'lim sohasini raqamlashtirish quyidagi afzalliklari o'z ichiga oladi:

- masofaviy ta'limni qo'llash orqali ta'lim olishning keng imkoniyatlarini ochish;
- rahbarlar bir qator vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddallashtirishga yordam berish;
- kerakli ma'lumotlarga istalgan joydan kirishni ta'minlaydi va manbalar bilan ishslashda muhim ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki ta'lim sohasini raqamlashtirish turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda barcha rahbar xodimlarning kundalik faoliyatida ish unmdorligining oshishiga kata turdki bo'ladi. Bizning hayotimizning har bir sohasi, boshqalar bilan aloqamiz, ish faoliyatimiz va o'qish jarayonimiz dastlabki raqamli texnologiyalardan foydalanishga muhtoj.

ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. **Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz:** bu – ta'lim berishda bir zamonaviy shakli bo'lib. unda masofaviy ta'lim va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishslash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarни amaliyotda ishlatish ta'limni raqamlashtirish orqali yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Tillayev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash //Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari –Al-xorazmiy xalqaro ilmiy anjuman.
3. Murodov Sh.N. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi.Pedagogs jurnali / <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/871>
4. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6сон.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТА'ЛИМ ЖАРАЙОНЛАРИДА ОДОБ-АХЛОҚ QOIDALARINI O'RGATISH

Tadjibaeva Inobatxon Farxadovna

Qoraqolpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani

52-son DMTT direktori

Annatatsiya: ushbu maqolada mактабгача та'лим тизимida tarbiyalanuvchilarda va xodimlarda ta'lim tarbiyani va odob-axloq qodalarini shakllantrish va takomillashtirish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье описывается формирование и совершенствование образовательно-нравственных норм обучающихся и сотрудников системы дошкольного образования.

Abstract: this article describes the formation and improvement of education and moral standards of students and employees in the preschool education system.

Kalit so'zlar: odob-axloq, maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim tarbiya, xodimlar, kasbiy faoliyat, kasbiy odob-axloq.

Ключевые слова: этика, система дошкольного образования, образование, сотрудники, профессиональная деятельность, профессиональная этика.

Key words: ethics, preschool education system, education, employees, professional activity, professional ethics.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob va axloq tarbiyasi ma'naviy va ma'rifiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida uning umumiy boshlang'ich tarbiya masalalariga muvofiq ravishda olib boriladi. Zero, maktabgacha yoshda shakllanadigan dastlabki ma'naviy ong, his-tuyg'u va axloq butun bolalik faoliyatiga, o'zoro hamda kattalar bilan bo'ladigan munosabatga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Shunga ko'ra bolalarda olib boriladigan odob va ahloqqa oid dastlabki tasavvurlar bevosita faoliyat jarayonida oila hamkorligida berilishi va unda quyidagilar hisobga olinishi zarur: Jamiyatning turli bosqich va jarayonlarida amalga oshiriladigan hech bir rasmiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar odob qoidalarisiz amalga oshirilmaydi.

Tarbiya aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib bolalarning ijobjiy-ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ularini uyg'unlashtirish asosida insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, o'zaro g'amxo'rlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig'ini bajarish, mustaqillikni namoyon qila bilish, batartiblik kabi his tuyg'ular hisobga olinadi.



Axloq-odob qoidalari –bu jamiyat hayotining barcha qatlamlarida turli shakllarda namoyon bo‘luvchi huquqiy, axloqiy, an'anaviy va shu kabi odamlarning xulq-atvori, xatti-harakatlariga xizmat qilgan qat’iy normalar, tavsiyalar, talablar yig‘indisidir. Odob-axloq qoidalari Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston

Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga hamda huquqbazarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida egallab turgan lavozimidan qat’i nazar Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy odob-axloqining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisidan iboratdir. Shuningdek, Odob-axloq qoidalarida Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari tomonidan yuqoridaq prinsiplar doirasida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qat’iy majburiyatlar belgilab beradi. Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari xizmatdan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozimligi belgilab berilgan.

- xodimlar tomonidan o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha o‘yg‘otishi mumkin bo‘lgan xulq-avtordan o‘zini tiyish va o‘z obrusi yoki soha nufuzini tahdid ostiga olishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldini olish;
- egallab turgan lavozimi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, yuqori darajada ma’nnaviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lish, hamkasblariga, fuqarolarga va boshqa uchinchi shaxslarga xurmat, xushmuomalalik va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish;
- maktabgacha ta’lim tizimi ishi to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qilish yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatiga xurmat bilan munosabatda bo‘lish, shuningdek, belgilangan tartibda ishonchli ma’lumotlarni olishga ko‘maklashish;
- maxfiy axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish, shuningdek, maxfiy axborot va shaxsiy ma’lumotlarni nobud qilish, yo‘qotish, o‘zgartirish, oshkor qilish, zarar yetkazish, ruxsatsiz foydalanish xavfidan tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlash;
- haqoratli, hurmatsiz va kamsituvchi xulq-atvorda bo‘lishga, shuningdek, maktabgacha ta’limi tuzilmalari hamda tashkilotlari va/yoki ular

xodimlarining obro'siga putur yetkazadigan zo'ravonlik yoki yolg'on mish-mishlarni tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik; o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda xizmat xonalari, davlat mulki, moddiy-texnik bazadan hamda tizimni boshqa mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish; xatlar va xizmat xabarlarini yetkazish va olishning tizimda belgilangan qoidalariga rioya qilishi;

➤ qonunbuzarlik sodir etishga undab o'ziga murojaat qilgan holatlar, shuningdek, vazirlik tizimi boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday qonunbuzarlik holatlari hakida o'z rahbari yoki boshqa vakolatli shaxslarni zudlik bilan xabardor qilish;

➤ tizimdagi yangi va boshqa xodimlarga zarur amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, hamkasblarini ularning kasbiy intilishlarida qo'llab-quvvatlash;

➤ mehnat intizomiga rioya qilish va ish vaqtidan samarali foydalanish, ish joyida va o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda alkogol, giyoxvand va boshqa taqiqlangan vositalarni iste'mol qilishdan, shuningdek, ish joyida alkogol yoki giyoxvand vositalar ta'sirida bo'lish holatidan voz kechish va bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik; hamkasblari va boshqa shaxslardan tanqidni tug'ri qabul qilish, shuningdek, xolis e'tirozlar bo'lganda xulq-atvorini o'zgartirish;

➤ berilgan vazifalarni bajarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tinch emotSIONAL holatda bo'lish. Siyosiy, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy va boshqa sub'ektiv sabablar xodim tomonidan mazkur qoidalar talablarini buzishga asos bo'lib hisoblanmaydi. Mehnat shartlari va xizmat turidan kelib chiqib, xodimning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishida tashqi ko'rinishi fuqarolar tomonidan ommaviy hokimiyatni xurmat qilishga ko'maklashishi, umumqabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi va rasmiylik, kamtarlik va intizomlilikni alohida ta'kidlashi lozim.

Odob-axloq qoidalarini o'rgatishning maqsadi

- Bolalarda insoniy qadriyatlarni shakllantirish.
- Jamiyatga moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Hurmat, mehribonlik, do'stlik va muloqot madaniyatini rivojlantirish.
- O'zini boshqarish, mas'uliyatni his qilish va intizomlilikni tarbiyalash.

Xodimlar ishdan bo'sh vaqtlarida umumqabul qilingan odob-axloq normalariga rioya qilishlari va axloqqa zid keluvchi xulq-atvordan o'zlarini tiyishlari kerak. Tizimi xodimlariga xodim o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish muomalasida mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlardir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda ta'lim muassasasi jamoatchiligining boshqa vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, insoniy qadriyatlarni himoya qilish, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifatini va o'z kasbining sharafini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarida ishonch, mas'uliyat va adolatga asoslangan madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.



Qoidalarning maqsadi – ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish, tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarga zamon talablariga muvofiq milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berish, shaxs va uning qadr-qimmati, huquqlarini hurmat qilish, odob-axloq madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantirish, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, pedagogik jarayon ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga imkon beradigan do'stona ish muhitini yaratish hamda ta'lim muassasasi mulkini asrab-avaylashdan iborat.

Qoidalalar ta'lim muassasalari va uning hududida, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda, darsda, tanaffusda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida hamda ta'lim va tarbiya bilan bog'liq tadbirlar davomida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zini tuta bilishini tartibga soladigan me'yorlar to'plami hisoblanadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tatbiq etiladi, nodavlat va boshqa turdag'i o'quv muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega. Mazkur Qoidalarga rioya qilish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun ta'lim muassasalari hududi doirasida majburiy hisoblanadi. Shuningdek, Odob-axloq qoidalalarida Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari tomonidan yuqorida prinsiplar doirasida o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qat'iy majburiyatlar belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari xizmatdan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi lozimligi belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni
3. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" O'zbekiston. 2017
4. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qatiy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" O'zbekiston. 2017
5. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." O'zbekiston. 2017

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ ЙОРИЙ ЭТИШ ВА УНГА Е'ТИБОР

Kuchkarova Munira Yuldashevna

Andijon viloyati Buloqboshi tumani 15-son DMTT direktori

Annotation. Maqolada inklyuziv ta'lism rasmiy ta'linda tushunchasi ancha kengroq. Bu ta'linda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'lism orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'linda qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

Аннотация. В статье понятие инклюзивного образования в формальном образовании гораздо шире. Это образование в основном работает с детьми с ограниченными возможностями обучения. Посредством инклюзивного образования предусматривалось создать условия для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста, повысить доступность детей к качественному дошкольному образованию, обеспечить равный доступ к нему.

Abstract. In the article, the concept of inclusive education in formal education is much broader. This education mainly works with children with learning disabilities. Through inclusive education, it was envisaged to create conditions for all-round intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children, increase children's access to quality preschool education, and ensure equal access to it.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lism, maxsus ta'lism, uydagil ta'lism, resurs pedagog, integratsion ta'lism, imkoniyatlar, maktabgacha ta'lism, jismoniy rivojlanish.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальное образование, домашнее образование, ресурсный педагог, интегрированное образование, возможности, дошкольное образование, физическое развитие.

Key words: inclusive education, special education, home education, resource pedagogue, integrated education, opportunities, preschool education, physical development.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lism global ta'lism tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Uning maqsadi — imkoniyati cheklangan bolalar va boshqa guruhlarga teng ta'lism imkoniyatlarini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy tenglikni shakllantirishdir. Maktabgacha ta'lism tizimida inklyuziv ta'lismni joriy etish,

imkoniyati cheklangan bolalarni tengdoshlar bilan birgalikda ta'lim jarayoniga jalb etish orqali ularning ijtimoiylashuvi va intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning asosiy prinsiplari

- **Barchaga teng imkoniyatlar:** Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiylar quruhlarda qatnashish imkoniyatini yaratish.
- **Moslashirilgan ta'lim dasturlari:** Maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish darajasiga mos keladigan individual o'quv dasturlarni ishlab chiqish.
- **Ko'p tarmoqli yondashuv:** Ta'lim muassasalarida pedagoglar, psixologlar, defektologlar va logopedlar birgalikda ishlashi.
- **Insonparvarlik va bag'rikenglik muhitini yaratish:** Guruhda o'zaro hurmat va yordam tamoyillarini shakllantirish.

Shvetsiya dunyodagi eng ilg'or inklyuziv ta'lim tizimlaridan biriga ega bo'lib, barcha bolalarning ta'lim olish huquqini teng ravishda ta'minlash tamoyiliga asoslangan. Ushbu mamlakatda inklyuziv ta'lim jarayoni bolalarning imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga, ularni jamiyatning ajralmas qismiga aylantirishga qaratilgan.

Shvetsiya tajribasidan o'rganish mumkin bo'lgan jihatlar

- **Individual yondashuvni ta'minlash-**Har bir bola uchun moslashtirilgan ta'lim rejasini ishlab chiqish, uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish.
- **Malakali kadrlarni tayyorlash-**Pedagoglar va yordamchi mutaxassislar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus dasturlarni tashkil etish.
- **Resurslarni samarali taqsimlash-**Ta'lim muassasalarini zarur infratuzilma, texnologiya va yordamchi vositalar bilan ta'minlash.
- **Jamiyatni jalb qilish-**Ota-onalar va jamiyatni ta'lim jarayoniga jalb qilish orqali bolalar uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish.

Janubiy Koreyada inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu mamlakatda imkoniyati cheklangan bolalarni umumiylar ta'lim tizimiga integratsiya qilishga katta e'tibor qaratiladi. Koreya hukumati va ta'lim tizimi maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish uchun ko'plab tashabbuslarni amalga oshirgan.

Koreya tajribasidan o'rganish mumkin bo'lgan jihatlar

- **Qonunchilik bazasini kuchaytirish-**Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim huquqini kafolatlaydigan qonunlarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish.

- **Raqamli texnologiyalardan foydalanish**-Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini moslashtirish.
- **Moliyaviy qo'llab-quvvatlash**-Hukumat tomonidan inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.
- **Pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish**-Inklyuziv ta'lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Inklyuziv ta'limni joriy etish uchun amalga oshirilgan choralar

1. **"Nogironlar Ta'limi to'g'risidagi qonun"** (Special Education Act) 2007-yilda qabul qilingan ushbu qonun nogiron bolalar va boshqa maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim huquqini kafolatlaydi. Qonunga ko'ra:
 - ✚ Barcha nogiron bolalar bepul ta'lim olish huquqiga ega.
 - ✚ Nogiron bolalar uchun alohida sharoitlar yaratish maktablar zimmasiga yuklatilgan.
2. **"Inson huquqlari to'g'risidagi milliy komissiya" tashabbuslari** Ushbu komissiya maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suradi.
3. **Raqamli texnologiyalardan foydalanish**
 - ✚ Koreya maktablari raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Nogiron bolalar uchun maxsus ilovalar, multimedia darsliklar va boshqa texnologiyalar keng qo'llaniladi.

Inklyuziv ta'lim bu o'zi nima? INKL YUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta'lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishidir. Inklyuziv ta'lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda jarayoni imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

➤ yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Inklyuziv ta’lim maktabgacha ta’lim tizimida barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta’minalashning muhim vositasidir. U barcha bolalarning ta’lim olish huquqini kafolatlab, jamiyatdagi salbiy stereotiplarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ammo bu tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlat siyosati, pedagogik yondashuv va jamiyat madaniyati birgalikda harakat qilishi lozim. Kelajakda inklyuziv ta’limni kengaytirish orqali har bir bolaning imkoniyatlarini ochib berish va ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida tarbiyalashga erishish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog’lom bolalar qatoriga qo’shib sifatli ta’lim olishini ta’milagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go‘zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash. Pedagogik ta’lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagи bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta’lim, 1(2), 111-113.
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo‘lgan ota-onा qaramogida bo‘lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
4. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya “ Ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash”2022 y.
5. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta“lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo’llanma 2014-yil.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТА'ЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ

Ismailova Gulsinoy Kayumjonovna

Andijon viloyati Qo'rg'ontepcha tumani 21-sod DMTT direktori

Annatatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim samaradorligini chet el tajribasi asosida yanada oshirish. Boshqaruvsda ta'lim samaradorligini yanada oshirish haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье речь идет о повышении эффективности обучения в дошкольных образовательных учреждениях на основе зарубежного опыта. Информация о дальнейшем повышении эффективности обучения предоставляется в администратором.

Abstract: This article is about further improving the effectiveness of education in preschool educational organizations based on foreign experience. Information is provided on further improving the effectiveness of education in management.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, ta'lim tashkilotlari, ta'lim samaradorligi, raqamli texnologiya vosiyalari, pedagoglar, boshqaruvs.

Klyuchevыe slova: образовательный процесс, образовательные организации, эффективность образования, хранители цифровых технологий, педагоги, менеджмент.

Key words: educational process, educational organizations, educational efficiency, digital technology guardians, pedagogues, management.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim samaradorligini oshirish uchun dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rGANISH va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Quyida maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi xorijiy tajribadan kelib chiqadigan asosiy yondashuvlar keltirilgan:

Chet el tajribasining ahamiyati

- Chet el tajribasi maktabgacha ta'lim tizimini yangilash va zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi.
- Rivojlangan davlatlardagi ta'lim tizimlari bolalarning ijodiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan.
- Ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajriba pedagoglar uchun yangi texnologiyalar va metodologiyalarni keltiradi.

Tabiat bilan integratsiya (Yaponiya va Norvegiya tajribasi)

Yaponiyada va Norvegiyada bolalarni tabiat bilan yaqinlashtirishga katta e'tibor qaratiladi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarning salomatligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

➤ **Amalga tadbiq qilish:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ochiq havoda darslarni ko'paytirish. Bog'lar, yashil maydonlar yoki o'yin maydonlarida mashg'ulotlar o'tkazish.

Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish (Singapur tajribasi)

Singapurda ota-onalar va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida ahamiyat beriladi. Bu jarayonda ota-onalar bolalarning ta'lim jarayoniga faol jalg qilinadi.

➤ **Amalga tadbiq qilish:** Ota-onalar uchun seminarlar, treninglar va ochiq darslar tashkil etish. Bu ota-onalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi.

Ko'p tildagi muhitni yaratish (Evropa mamlakatlari tajribasi)

Ko'p tilli ta'lim Evropaning bir qancha davlatlarida (masalan, Belgiya, Shvetsiya) bolalarning madaniy va lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladi.

• **Amalga tadbiq qilish:** Maktabgacha ta'lim dasturlariga xorijiy tilni o'rgatishni bosqichma-bosqich kiritish. Masalan, oddiy qo'shiqlar va o'yinlar orqali yangi tilni o'rganishni rag'batlantirish.

Bizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim jarayonini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Shuni aytish keraki ta'lim samaradorligini oshirishda yana quyidagilarga etibor berishlozim! **Bular:**

Chet el tajribasini mahalliy sharoitlarga moslashtirish

Chet el tajribasini o'rganib, mahalliy ta'lim tizimiga quyidagi yondashuvlarni joriy etish mumkin:

➤ **O'yin orqali ta'lim:** Bolalarning tabiiy qiziqish va ijodkorligini rag'batlantirish uchun o'yin va ijodiy mashg'ulotlarni joriy etish.

➤ **Raqamli texnologiyalarni kiritish:** Elektron o'quv vositalari va platformalar yordamida ta'limni zamонавиylashtirish.

- **Tabiat bilan yaqinlik:** Tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni tashkil etish.
- **Ota-onalar ishtirokini kuchaytirish:** Ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb etish orqali samaradorlikni oshirish.
- **Individual yondashuv:** Har bir bolaning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos dasturlarni ishlab chiqish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqr o‘zlashtirilishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a‘zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga; o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish,

Ta’lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma‘lumotlar Internet tarmog‘ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikasiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikasion xizmat turlariga ajratish kerak.

Xulosa shuki:

Chet el tajribasi maktabgacha ta’limni zamonaviylashtirish va samaradorlikni oshirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu tajribalar mahalliy sharoitga moslashtirilganda:

- Ta’lim jarayonlari qiziqarli va samarali bo‘ladi.
- Bolalarning ijodiy va ijtimoiy qobiliyatları rivojlanadi.
- Ta’lim sifati va raqobatbardoshlik oshadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida chet el tajribasini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun mahalliy pedagoglar va rahbarlarni xorijiy tajribaga mos ravishda o‘qitish va treninglar tashkil etish zaru

Chet el tajribasini milliy maktabgacha ta’lim tizimiga moslashtirish samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda o‘yin asosida ta’lim, tabiat

bilan integratsiya, STEAM dasturlari, ijtimoiy-emotsional rivojlanishga e'tibor va ota-onalar bilan hamkorlik kabi uslublar muvaffaqiyatli natijalar berishi mumkin. Shu bilan birga, xorijiy tajribani o'zimizning milliy qadriyatlar va madaniyatimizga moslashtirish ta'lif tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son
2. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2002. - 184 b.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'r ganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M, Akademiya, 2009-y.
4. Xakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish zaruriyati //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 1.
5. Mamajonov I.G, Ta'limda innovatsiya va innovatsion faoliyat // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal. № 6. Noyabir – Dekabr, 2020-yil.
6. Musaxanova Gulnora Mavlyanova. "Keys-stadi" Texnologiyasi talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantiruvchi innovatsion metod sifatida. Arxiv issledovaniy. 2, 1 (apr. 2022).
7. F.U.Tursunov, SH.R.Baxriddinov "Oliy ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarishda muammolar". Eurasian Journal Of Academic Research elektron jurnal. 2022 14- aprel. www.in-academy.uz

VALEOLOGIYA FANINING METODLARI VA USHBU FANNING INSON SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI O'RNI

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi
Allaberganova Sevinchoy Ruslanovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada valeologiya faning metodlari va inson salomatligini o'rganishdagi o'rni atroflichcha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: valeologiya, metod, salomatlik.

Gippokrat va Abu Ali ibn Sino o'z davrida kasallik va salomatlikdan boshqa yana o'tish davrini "Uchinchi holat" deb atashgan. I.I.Mechnikov esa Tabiatshunoslik va shifokorlar se'zdida (1889) "Organizmning davolovchi kuchi" haqida so'zlagan. S.M.Pavlenko (Rostov) va S.F.Oleynik (Lvov) lar salomatlik mexanizmi va unga ta'sir etish usullari haqida gapirishgan, hamda ushbu fikrlar XX asrning 60-yillari oxirida "Sanalogiya" atamasini vujudga keltirishdi. Ammo bunday qarashlar 20 yildan ko'p davr ichida butunlay esdan chiqarildi. N.M.Amosov o'zining "Salomatlik haqida o'ylar" nomli kitobida (1978) "Salomatlikning salmog'i" atamasi ya'ni organizmning zahiradagi kurashuvchi imkoniyati to'g'risidagi fikrni aytdi. I.I.Brexman (vladivostok) 1987 yilda "valeologiyaga muqaddima – salomatlik xaqidagi fan" nomli monografiyasini chop ettirib, valeologiya fanining asoschisi bo'lib qoldi. So'ngra ushbu fanning markazi Kiev bo'ldi va birinchi bo'lib, sport sohasidagi tabobat yo'naliشida shaxsning sog'lig'iga somatik baho berish modelini G.A.Apanasenko tomonidan yaratildi (1985). 1989 yilda birinchi bo'lib, fiziologiya kafedrasida, professor v.P.Kulikov (Barnaul) yaratilgan o'quv qo'llanma asosida ma'ruza o'qidi. 80-nchi yillarning oxirida esa Yu.P.Lisitsin bir necha maqolalari bilan "Sanalogiya" atamasini "tiriltirdi". Ularning mazmuni "Hayot mazmuni"dan iborat edi. 1992 yilda Kievdagagi shifokorlar Malakasini oshirish institutida sport meditsinasi va sanalogiya kafedrasи ochilib, kafedra mudiri G.L.Apanasenko bo'lган va u dunyo bo'yicha birinchi sanolog hisoblangan. G.L.Apanasenko «valeologiya masalalari» haqida quyidagi fikrlarni bayon etdi. Akademik I.I.Brexman organizmning tashqi salbiy ta'sirotlarga nisbatan kurashish mexanizmini o'rganib, unda qarshi kurashish xususiyati borligini isbotlab, "adaptatsiya" mavjudligini qayd etdi. U ayrim biologik faol moddalarning sog'lom organizmga ijobiy ta'sir etishi mumkinligini o'rganib, farmakologiya faniga yangi yo'naliш yaratdi va "farmakosanatsiya" (sog'lom kishilar uchun dori-darmon) atamasini asosladi va bu "valeologiya" faniga ham asos bo'ldi. Sog'liqni saqlash va mustahkamlash

uchun asos soldi. Ovqat moddalarini dori-darmonlar va boshqa vositalar bilan boyitish, fikrlari ham yuzaga keldi. Yuvenal “Sog’lom tanda sog’ aql-eng ulug’ ne’mat” degan bo’lsa, S.M.Pavlenko va S.F.Oleyniklar “Sanogenoz” (organizmning dinamik, kompleks moslashish mexanizmi) ta’limotini yaratishdi ya’ni favqulodda holatlarga qarshi organizmning kurashishi, o’zini-o’zi tiklashi mexanizmi tushunchasini o’rtaga tashlashdi. P. Kaznacheev fikricha, agarda valeologiyaga ahamiyat berilmas ekan Rossiya aholisi 21-asrning o’rtalariga kelib 2-barobarga kamayishi mumkin degan fikrni aytgan ekan. Qadimdan inson organizmi tuzilishini uch bosqichli piramidaga o’xshatishgan ya’ni: birinchisi-jasad, ruhiyat (psixika) va ma’naviy, aqliy holat (duxovnost)lardan iborat. Jasad deyilganda uning bir butunligi, turg’unligi va boshqarilishi jarayonlarining imkoniyatli ekanligi ya’ni gomeostaz, adaptatsiya, reaktivlilik, chidamlilik, reparatsiya (yangilanish), regeneratsiya (qayta tiklanish), ontogenetika va boshqalar. Bu o’z ichiga eslash qobiliyati va uning o’ziga xosligi, boshqa ruhiy holatlar-emotsional, intellektual xususiyatlari.Uchinchisi-ahloqiy, ma’naviy holat ya’ni aql-idrok, xissiyotlik darajasi- «Odam» hisoblanadi. Insonning bunday tuzilishi va funktsional holatini bilishlik valeologiya fanining ob’ekti hisoblanadi. Valeologiya atamasi 80-nchi yillarda I.I.Brexman tomonidan fanga kiritilgan. Evropada “Xelsazm” deb atashgan. Rossiyada “sog’lom odamning -sog’lig’i” deb nomlanib, ko’pgina viloyatlarda majburiy fan sifatida institut va maktablarda o’qitilgan, xatto markazlar ham mavjud bo’lgan. Unda tekshirib, diagnoz qo’yiladi va organizm holatini aniqlab, tegishli tuzatishlar uchun maslahat beriladi.

Odamning sog’liq holati, taraqqiyoti va rivojlanishini ontogenetika davrida tekshirishda turli xil usullardan foydalaniladi. Jumladan, genetik, biokimiyoviy, biofizikaviy, fiziologik, morfologik, psixologik,sotsial va boshqa usullardan foydalaniladi. valeologik tekshirishda uning ob’ekti odam bo’lgani uchun stress, sezgirlik, kasallikdan oldingi davr, sinergizm, antagonizm, rekombinatsiya, psixologik holat kabilardan foydalanib tegishli xulosaga kelinadi. Zerkalo nedeli gazetasida (1999), vladimir Maevskiy «Doktor Apanasenkoning retsepti» nomi bilan quyidagi fikrlarni bayon etadi.

Hayotdagi ayrim xatoliklarning mavjudligi, yadroviy vahimalar, madaniy va boshqa taraqqiyot, ekologik xavf-xatarli sotsial holatlar uning sog’ligiga putur etkazishi, o’lim sodir bo’lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, vOZ ma’lumotlariga ko’ra 1992 yildan 2000yilgacha bo’lgan davrda planeta bo’yicha rak kasalliklari 80%ga ortishi mumkin. Diabet kasalligi har 10-12 yilda 2 marta ko’paymoqda. «Surunkali bronxit» kasalligi 20%ni tashkil qiladi. Bularning hammasi insoniyat inqiroziga olib keladi, lekin ayrim holatlarda ko’payish bo’lsa ham, ularning sifat darajasi yil sayin yomonlashadi. Tug’ilgan balalarning 90% har hil kamchiliklar

(organik poroklar) bilan tug'ilmoqda, 10%-ti esa sog'lig'ini yaxshilash uchun ming-minglab dollarlarni talab etadi. Ilgarilari insoniyat boshqacha tashqi muhit va holatlarda yashagan. Tabiat borgan sari o'zgarmoqda. Biologik organizmda o'z-o'zini boshqara olish mexanizmi mavjud. Agarda u o'zgarsa turli xil noxushliklar, kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun ham, masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda – AQShda, Frantsiyada nafaqat eski kasalliklar (tuberkulyoz, malyariya – bezgak, va b.) qayta tiklanmoqda, xatto ayrim odamlarda kasalliklar «buketi – dastasi» paydo bo'lmoqda. Odatiy meditsinaning esa ularga ko'plab dori-darmon vositalari bilan ham kuchi etmay qolmoqda.

Bunday ortodoksal (bir qolipdagi) sog'liqni saqlash tizimining mavjudligi Ukrainianada valeologiya fanining barpo bo'lishiga sababchi bo'ldi va uning vazifasi organizmning o'zini-o'zi boshqara olish mexanizmini mustahkamlashdan iboratdir, degan fikr bo'ldi.

Shuning uchun ham, Ukrainianada jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat berilib, bu sohada Ovro'padan o'n yil oldinga o'tib oldi va endagi shior «valeologiya dlya vsex» bo'lib qoldi. Valeologiya fanining maqsadi keng, vazifalari esa serqirrali. Uning mazmuni va muammolari anchagina bo'lib, ular haqida fikrlash va tasavur qilish uchun adabiyotlar bilan tanishish, ayniqsa ushbu kitob o'qib chiqib tegishli xulosalarga kelishlik faqat foydali. Shuning uchun har bir inson ushbu fanning mazmun-mohiyatini keng ma'noda yaxshi tushunishligi kerak degan umiddamiz.

Chortoq sanatoriyasi – balneologik kurort bo'lib, Naman-gan shahridan 25 km, Chortoqsoy daryosi vodiysida, to'g'lar yaqinida joylashgan. Iqlimi yumshoq, bu kurort hududida qishda +1 +4°C, yozda esa +23 +25°C iliq, havoning nisbiy namligi 52 %ni tashkil qiladi. Kurort o'zining mineral suvlari bilan (xlo-ridli, yodli, natriy, kaliyli eritmali), shuningdek, zamonaviy fizi-oterapevtik davolash uchun nihoyatda yuqori darajada jihozlan-ganligi bilan mashhur. Zamonaviy fizioterapiya, lazer bilan da-volash, davolovchi jismoniy tarbiya, massaj, psixoterapiyadan foydala-niladi. Yod-bromli vannalar gipotonik, tomir kengaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Davolash uchun ko'rsatmalar: hazm a'zolari kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, tayanch-harakat a'zolari kasalliklari, ginekologik kasalliklar va teri kasalliklarida.

«Chimyon» sanatoriyasi balneologik kurort bo'lib, Farg'ona shahridan 32 km masofada joylashgan, dengiz sathidan 450 m balandlikda, Oltinsoy daryosi vodiysida. Asosiy shifobaxsh omillari bu – vodorod sulfidli mineral suvlari va balchiqli ko'lning balchig'idir. Vodorod sulfidli van-nalar, chayishlar va boshqa maqsadda foydalilanildi. Sulfidli suvlari odam organizmiga teri, shilliq pardalar va nafas yo'llari orqali ijobjiy ta'sir etadi va sog'lomlashtiradi. Davolash uchun ko'rsatmalar: qon

aylanish tizimi kasallikkari, asab tizimi kasallikkari, ginekologik va urologik kasalliklar.

«Kosonsov» sanatoriyasi – Namangan shahridan 30 km ma- sofada joylashgan bo‘lib, iqlimi qishda 0°-3°C gacha, yozda esa +26° – 28°C gacha iliq bo‘ladi.

Davolash kompleksida davo vosita sifatida iqlim bilan davolash, balchiq bilan davolash, gal- vanoterapiya, fizioterapiya, suv bilan davolash, massaj va davolovchi jismoniy tarbiya, parhez va mineral ichimlik suvlar tavsiya etiladi.

«Oqtosh» sanatoriyasi – Toshkent shahridan 65 km maso- fada va dengiz sathidan 1140 m balandlikda joylashgan. Davo- lash omili mussaffo tog‘ havosi, tog‘ daryolaridan kelayotgan tog‘ suvlari juda shifobaxsh xususiyatga ega. Nospetsifik nafas a’zolari kasalliklarida davolanish uchun tavsiya etiladi. «Chinobod» sanatoriyasi balneologik balchiqli kurort bo‘ lib, Toshkent shahrida, dengiz sathidan 470 m balandlikda joy- lashgan. Asosiy tibbiy davo omili Toshkent artezian hovuzining suvlari (+50°C), xloridli – gidrokarbonatli – natriyli, ichimlik va tashqi foydalanish uchun (vannalar, chayishlar) qo‘llaniladigan suvlar. Bundan tashqari fizioterapevtik muolajalar, massaj, davolovchi jismoniy tarbiya, parhez, balchiqli aplikatsiyalar qo‘llaniladi. Davo- lash uchun ko‘rsatmalar: hazm tizimi a’zolari kasalliklari, ginekologik kasalliklar, teri qoplami kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, nafas a’zolari surunkali kasalliklari remissiyasi davrida.

Shuningdek, Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida da- volash-sog‘lomlashtirish komplekslari va sanatoriyalari juda ko‘p, ulardan: «Botanika» sanatoriyasi – Toshkent shahridan 30 km masofada, «Umid gulshani» sanatoriyasi Toshkent shahridan 18 km masofada, «Bo‘ston» sanatoriyasi – Toshkentdan 30 km masofada Chirchiq shahrida, «Havotog‘» sanatoriyasi Sirdaryo viloyatida, «Sitorai Mohi Xossa» – Buxoro shahrining sharqiy qis- mida, «Abu Ali ibn Sino» sanatoriyasi – Samarqand shahridan 50 km masofada, «Zomin» sanatoriyasi – Jizzax viloyatida, «Qashqadaryo sohili» sanoriyasi Qarshi shahrida, «Miroqi» sanatoriyasi Qashqadaryo daryosi vohasida, Shahrisabz shahridan 20 km masofada, «Marhamat» sanatoriyasi – Andijon shahridan 35 km masofada joylashgan.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	CONCEPTUAL-COGNITIVE INFLUENCE OF THE STRUCTURE OF ENGLISH AND UZBEK VOCABULARY AND POSSIBILITIES OF TEXT FORMATION	3
2	METHODS USED IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS	7
3	METROLOGIYA VA STANDARTLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	12
4	DEKORATIV KOMPOZITSIYALARNI BAJARISHDA RANG MUNOSABATLARIDAGI O'ZARO UYG`UNLIK	15
5	MINIATYURA ASARLARINI BADIY OBRAZ ORQALI IDROK ETISH YOSHLARDA ESTETIK QARASHLARNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITADIR	20
6	O'ZBEKİSTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTİTSİYALARİNG AHAMIYATI	25
7	NOGIRONLIGI BÖLGAN SHAXSLARNING TALIM OLISH HUQUQLARI	29
8	LOG-ALGEBRALARINING BERILISHI	34
9	MASTERING THE ART OF WRITING LETTERS IN ENGLISH: TIPS AND TECHNIQUES	38
10	XROMATOGRAFIYA ANALIZ USULINING FARMASEVTIKA SOHASIDAGI AHAMIYATI	45
11	РАЗРАБОТКА ГОЛОСОВОГО ПОМОЩНИКА ДЛЯ АВТОМАТИЗАЦИИ РАБОТЫ ЛЕЧЕБНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ.	49
12	РАЗРАБОТКА СТАТИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МИРОВОГО ОПЫТА	52
13	ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНИКИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ НАПИСАНИЯ ЭССЕ У КУРСАНТОВ	60
14	ПРЕПОДАВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ С ПОМОЩЬЮ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ	64
15	PROVERBIAL PHRASEOLOGICAL UNITS AS A REFLECTION OF ENGLISH NATIONAL CULTURE	68
16	SYNECDOCHIZATION OF UZBEK TONGUE TWISTERS	71
17	THE DESCRIPTION OF LINGUOCULTURAL RESEARCH IN WORLD LINGUISTICS	75
18	HARBIY XIZMATCHILARNING SOTSIAL PORTRETI	78
19	O'ZBEKİSTONDA AHLI VA HUDUDLAR MUHOFAZASI	85
20	ЗНАЧЕНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА ДЛЯ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ	90
21	KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHIDA MAYDA QO'L MOTORIKASINING AHAMIYATI	97

22	O'ZBEKISTON YO'L HARAKATI QOIDALARINING YANGILANISHLARI: XAVFSIZLIK VA RAQAMLASHTIRISH	102
23	THE ROLE OF AD HOMINEM ATTACKS IN POLITICAL DISCOURSE	106
24	MAKTAB XODIMLARINI ISHGA QABUL QILISHNI AVTOMATLASHTIRISH	110
25	IDIOMATIC EXPRESSIONS IN CONTEXT: PRAGMATIC FUNCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE USAGE	115
26	NEW METHODS IN TEACHING THE CHINESE LANGUAGE IN UZBEKISTAN	122
27	YURAK ISHEMIK KASALLIKLARIDAN O'LIM HOLATLARINI SUD-TIBBIY AHAMIYATI	125
28	QOBUSNOMA – HIKMATLAR SANDIG'I	131
29	QISSASI RABG'UZIY ASARIDA RIVOYA VA HAYOTIY TRADITSIYALAR	135
30	UMAR XAYYOMNING "NAVRO'ZNOMA" ASARIDA QO'LLANILGAN DETALLAR VA ULARNING BADIY TAHЛИI	139
31	KONSTITUTSIYANING ASOSIY TAMOYILLARI	143
32	MA'MURIY HUQUQBUZARLIKKA OID ISHLARNI YURITISHDA YARASHUV INSTITUTINING AHAMIYATI	148
33	THE LINGUOCULTURAL SIGNIFICANCE OF COLOR DESIGNATION IN THE MODERN ENGLISH LANGUAGE	154
34	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI TA'LIMIY FAOLIYATNI TUBDAN RIVOJLANТИRISHNING ASOSIY USTUVOR VAZIFALARI	157
35	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISH TAMOYILLARI	161
36	MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING IMKONIYATLARI	165
37	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM JARAYONLARIDA ODOB-AXLOQ QOIDALARINI O'RGATISH	169
38	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLЮZIV TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH VA UNGA E'TIBOR	173
39	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA CHET EL TAJRIBASI	177
40	VALEOLOGIYA FANINING METODLARI VA USHBU FANNING INSON SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI O'RNI	181

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович

Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон

Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

